

Bahrom Tojiev, Nasiba Isaxojieva

Qalamtasvir, rangtasvir va kompozitsiya asoslari

Toshkent – 2011

Ushbu o‘quv metodik qo‘llanma pedagogika universiteti hamda institutlarning tasviriy san’at ta’limini beradigan fakultetlari talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bunda qalamtasvir chizish, rangtasvir ishlash, kompozitsiya bilan shug‘ullanish jarayonida amal qilinishi lozim bo‘lgan eng zarur nazariy qonun qoidalar to‘g‘risida so‘z yuritiladi. O‘quv metodik qo‘llanmadan maxsus kasbhunar kollejlarining talabalari, shuningdek barcha tasviriy san’atga qiziquvchilar ham foydalanishlari mumkin.

Mualliflar: Bahrom Tojiev – dotsent

Nasiba Isaxojieva – o‘qituvchi

Taqrizchilar:

K.Behzod nomidagi Milliy rassomchilik va
dizayn instituti professori: A.T.Ikromjonov

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
Universiteti professori: G‘.M.Abdurahmonov.

Nizomiy nomidagi TDPU Ilimiy Kengashida muhokama qilinib nashr etish
uchun tavsiya qilingan.

Bayonnomma № ____ «____» _____ 2011 yil

Muqaddima

Mustaqil mamlakatimizda ilm-fan, madaniyat, san'at, adabiyotga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada «Ta'lif to'g'risida»gi Qonun hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da belgilab, aniq ko'rsatilgan barcha maqsad – vazifalar o'z o'rniда izchillik va sobitqadamlilik bilan amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, tasviriy san'at ta'lifiga, uning nazariy va amaliy masalalariga oid darsliklar, o'quv-qo'llanmalar oliy o'quv yurtlarining hamda kollejlarning o'qituvchilari, talabalari va o'quvchilari qo'liga tez etib bormoqda. SHunday o'quv adabiyotlarining muqobil variantlari ham chop etilmoqda. CHunki tasviriy san'atga, uning turli sohalari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar mazmuniga bag'ishlangan har qancha kitob bo'lsa, u hech qachon zarar qilmaydi.

Ushbu qo'lingizdagi o'quv metodik qo'llanma tasviriy san'atda muhim o'rin tutib, alohida fan sifatida o'qib, amaliy jihatdan o'rganiluvchi qalamtasvir, rangtasvir va kompozitsiyaga oid bo'lib, uchchala soha masalalari qonun-qoidalari to'g'risida qisqacha ma'lumotlarni beradi. Odatda tasviriy san'atni har tomonlama mukammal o'rganib, ijodiy yo'nalish olishni astoydil istagan talabalar nafaqat amaliy ko'nikmalarni, balki nazariy bilimlarni ham chuqur bilishga intiladilar. SHunday sa'i-harakatlar paytida ularga ayrim zarur yozuvlarni bajarishlariga to'g'ri keladi. Bunday – referat, konspekt, iqtiboslar ko'rinishidagi ishlarni sifatli bajarish va o'sha matnni eslab qolish albatta izlanishlarni, so'rab hamda kitoblarni ko'rib o'rganishni, kerakli erlarini yozib olishni talab etadi. SHunday kezlarda talabalar o'z ustozlariga qalamtasvir, rangtasvir va kompozitsiyaga oid savollar bilan murojaat etib, shu uch soha bo'yicha yagona qisqa bayon etilgan manba boryo'qligi haqida so'rab qolgan hollari ham tez-tez uchrab turadi. Bu paytda ushbu qo'llanmamizdagi ular unumli foydalana oladilar deb umid qilamiz.

Ma'lumki, barkamol avlodni tarbiyalash mas'uliyati pedagoglar zimmasiga ko'p ishlarni yuklaydi. Prezidentimiz I.A.Karimov «Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari shart» deb bejiz aytmaganlar. Tasviriy san'at ham barkamol avlod tarbiyasida muhim o'rin egallashi esa hayotda ko'p marta o'z tasdig'ini topib kelmoqda. Ushbu o'quv metodik qo'llanma ham bo'lajak pedagog-rassomlarni etishtirish ishiga yaqindan yordam beradi deb o'ylaymiz.

I BOB. Qalamtasvir. Qalamtasvir va uning maqsad - vazifalari.

Tasvirlashning asosiy qonun – qoidalari

Tasviriy san'at har bir ijodkor shaxs uchun juda keng faoliyatlar maydonidir. Rasm chizishni puxta egallash barcha san'at turlarida muhim o'rinni egallaydi. SHu sababli akademik surat ishslash bilimi tasviriy faoliyatning barchasida qo'l

keladi, muvaffaqiyatni ta'minlaydi. Qalamtasvir ishlashga va uni o'z ma'naviy hayotida foydalanishga odamlar qadimgi paytlardanoq intilib kelganlar. SHu sababdan ham rasm chizishning ma'lum konun-qoidalari ishlab chiqilgan va yillar, asrlar mobaynida takomillashtirilib kelingan. Qalamtasvir barcha tasviriy san'at turlarining asosi, negizi desak xato bo'lmaydi. O'quv-mashq vazifalarni puxta, ifodali qilib tasvirlay olish akademik rasm qonun-qoidalarni atroflicha ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'rganishni taqozo etadi. Ular ish faoliyatini sifatli tashkil etilishiga ham ko'p tomondan bog'likdir. Bundan tashqari chizishda ishlatiladigan asbob-anjomlar sifatli, talabga javob beradigan bo'lishi kerak.

Qalamtasvir ishlashning eng asosiy talabi chizish ob'ektini har tomonlama o'xshatib aks ettirishdan iborat faoliyatni ta'minlashdir. Buning uchun tasvirni qog'oz sathida to'g'ri joylashtirish, nisbatlarini to'g'ri aniqlash, buyumlarning o'zaro masofasini va perspektiva holatlarini aniq topish talab etiladi. Ishning maqsadga muvofiq chiqishida albatta bilim, tajriba va mahorat etarli darajada kerak bo'ladi. Bilim o'qish, o'rganish, mutolaa qilish orqali orttirilsa, tajriba va mahorat ko'p ishslash, tinmay mashq qilish, intilish evaziga orttirilishi ma'lum.

Ta'lim olishning yana bir muhim sharti har bir tasvir etiladigan narsa, hodisa, lavhani aslidan, ya'ni naturadan qarab aks ettirilishiga juda bog'lpq ekanligi sir emas. CHunki chizishda hayot haqiqatini ko'rsata olish sifati eng muhimdir desak aslo yanglishmaymiz.

Tasvir chizishni o'rganish oddiy natyurmortlarni, shuningdek alohida-alohida turgan buyumlarni aks ettirish orqali amalga oshiriladi. Ish tasvirni qog'ozga to'g'ri va chiroqli tarzda joylashtirishdan boshlanadi, so'ng har bir narsani o'zaro joylashishi, ular orasidagi masofalar nisbatlar aniqlanadi. Bunda qalam engil, qog'ozga ortiq darajada bosmasdan ishlatilishi kerak. Aks holda noto'g'ri chiqqan joylar va yordamchi chiziqlarni o'chirg'ich bilan ketkazish qiyin bo'ladi. SHuning uchun o'rtacha yumshoqlik darajasidagi «TM», «M», «2M» rusumli qalamlardan foydalanish aicha qulay.

Tasvirlarni ishslashda perspektiva qoidalariiga amal qilinishi zarur.

Ma'lumki, har bir narsa boshqa narsadan uzoqrokda turgan bo'lsa, u ko'zimizga kichrayib ko'rindi, tarxlari ham hiraroq bo'ladi, unga tushayotgan yorug'lik, soyalar ham birinchi plandagi buyumnikidan farqlanib turadi. Bularning hammasi chiziqli va havo perspektivasi hodisasining tabiatda namoyon bo'lishidir.

Ana shu jihatdan to‘g‘ri aks ettirilsa tasvir haqqoniy chiqishi ta’minlanadi. Har bir narsa qog‘ozda tasvirlanar ekan, albatta uning turishiga nisbatan ufq chizig‘i topib olinishi kerak. U chizuvchi kishining ko‘zi balandligidan o‘tuvchi tasavvur etiladigan gorizontal to‘g‘ri chiziqni tashkil etadi.

Natyurmortlarda uni to‘g‘ri aniqlab olib tasvir yaratishda foydalanish zarur shartlardan asosiysi bo‘lib, tasvirning haqqoniy chiqishni ta’minlaydi. Narsaning tasvirini gorizontal sathga va vertikal kartina sathiga nisbatan holati ham perspektiva ko‘rinishiga muvofiq topiladi. Bunda tomonlarning qisqarib, uzoqlashib borgan sari kichrayib ko‘rinishi ufqning tutashish nuqtasiga asosan topib chiziladi.

Tasvir yaratishda fazoviy perspektivaga ham ahamiyat berilishi zarur. CHunki yaqinda joylashib turgan buyum uzoqrokdagisidan tusi, rangi, to‘q-ochligi bilan ajralib turadi. Soya-yorug‘liklarni tasvir tarxlariga monand o‘xshatib aks ettirish ular o‘rnini to‘tri mutanosib topishga ham bog‘liqligini unutmasligimiz kerak.

Natyurmortlarda manzara tasvirlariga nisbatan perspektiva qoidalarini qo‘llash murakkabroq, chunki buyumlar, narsalar orasidagi farq, masofalar kamroq bo‘lib, ular diqqat bilan kuzatilib aniqlanadi. Manzara, tabiatdagi perspektiva esa yaqqolroq seziladi. Masalan, tekis yo‘nalgan temir yo‘lni kuzatsak bu hodisa aniq ko‘rinadi. Undagi relslar uzoqlashgan sari bir-biriga yaqinlashib, ufqqa borib birlashib, nuqta bo‘lib ikki tomondagi sim yog‘ochlar tobora kaltalashib borayotgandek tuyulishi fikrimizni tasdiqlaydi. Bu hodisani kuzatib perspektiva qonuniyatlarini anglab olish, tahlil qilish, tegishli bilimlarni olish mumkin.

Rasm chizish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etilishi tasvir yaratishning eng muhim pedagogik shartlardan biridir. Buning uchun rasm chizganda uning hajmiga, ifodasiga ham, har bir narsaning o‘zi mavjud bo‘lib turgan atrof muhitiga ham ob’ektiv tarzda yondoshilishi haqqoniy tasvirlanishi kerak.

O‘quv qalamtasvir xamda qalamchizg‘ilar bajarishda kompozitsiya asoslari va ijodiy malakalarni rivojlantirish

Tasviriy san’atning barcha turlarida va janrlarida kompozitsiya masalasini hal etish etakchi o‘rinlarda turadi, desak yanglishmaymiz. Buning uchun esa har bir

san'at turiga muvofiq tarzda kompozitsiya asoslarini qo'llay bilish kerak. SHu o'rinda kompozitsiya umumqoidalari puxta o'rganilishi zarur. Ular akademik qalamtasvirlar yaratish, o'rganish, mashq qilish jarayonining ham ajralmas qismidir.

Masalan tasvirning yaxlitligi, tomonlari va qismlarining o'lchami, mutanosibligi, simmetriyaviylik, muvozanat, rang va tus, soya-yorug' munosabatlari, badiiylik me'zonlariga amal qilinishi masalalari, shuningdek, mavzuning aniq-tiniq bo'lishi kerakligi umumqoidalalar sirasiga dahldorligi bilan ajralib turadi. Ma'lumki, qalamtasvir barcha tasviriyot sohadarining asosidir. Kompozitsiya qonun-qoidalarisiz esa oddiy tezkor chizgini xam tasavvur etishimiz qiyin. CHunki oddiy xomaki rasmda ham o'ziga xos o'lcham, mutanosiblik, hamda uncha ko'lamli bo'lmasada mazmun mavjud bo'ladiki, bu hodisani hech kim inkor qila olmaydi.

Ma'lumki, inson qomatini chizish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bunda albatta akademik rasm ishslash amallari qo'llaniladi. U esa oddiydan murakkabga o'tib borish orqali yuzaga chiqariladi. Odam tasviri talabalar, uni endi chizishni o'rganayotganlar uchun ancha murakkab ishdir. Bu sohaning nazariy qismini o'qib, o'rganish mashqlar uchun chiziladigan vazifalar sifatini oshirishning omildir. CHunki nafaqat yillar, balki asrlar davomida akademik rasm chizish sirlari ochilib, tadqiq etib, takomillashtirilib kelinmoqda. SHundan ma'lumki o'ziga xos, inkor etib bo'lmaydigan tamoyillar, qonun-qoidalar vujudga kelgan. Ularga amal qilinishi ayniqsa o'rganuvchilarga yordam beradigan zo'r omildir.

Odam qomatini to'liq tasvirlash, uning bosh qismini chizish amallari to'liq o'zlashtirilib olingach boshlangani ma'qul. SHunda dastlabki mashqlardanoq etarli samaraga erishish mumkin bo'ladi. Asosiy e'tibor tanani tadqiq etish va tasvirlash ishiga karatiladi. Ma'lumki inson qaddi-qomatining o'z o'lchamlari, mutanosiblik tamoyillari mavjud. Masalan yosh bola boshining o'lchami tanaga nisbatan jixatdan ancha mutanosiblikda bo'ladi va tanaga, uning balandlik o'lchamiga olti, etti, ba'zan etti yarim karra joylashadi. Albatta bu me'zonlar nisbatan bo'lib turli odamlarda har xillik kasb etadi.

Odam qomatini chizishda uning tuzilishini (konstruksiyasini) bilish katta ahamiyatga ega. Buning uchun chizuvchi tananing qanday harakat holatida, qay

vaziyatda turganligini qoralama chizgilar qilish orqali tahlil qilish, ko‘plab shunday mashqlar bajarishi, so‘ng asosiy ishni boshlashi kerak. CHizganda ham qiyofani, uning barcha bo‘laklarini alohida-alohida emas, balki yaxlit aks ettirishga urinish, hamda buncha erishish lozim bo‘ladi. Ammo har bir bo‘lak uning tasvirda tutgan roli ham unutilmasligi kerak. Turgan odam qiyofasini chizishning asosiy amallari nimalardan iborat, degan savolni oldimizga qo‘yib, unga javob beraylik:

Ilgarigi vazifalardagidek bunisida ham dastlabki maqsad ob’ektini qog‘oz sathiga chiroyli qilib joylashtirishdan iboratdir. So‘ngra tana turish vaziyati, holati topiladi, keyin qomatning qismlari, o‘lchamlari o‘zaro mutanosibligi topiladi. Ular odamning keksa yoshligiga, semiz yoki ozg‘inligiga, bo‘yining past yoki balandligiga bog‘liq bo‘ladi. Bunda albatta odamning qaysi bir oyog‘iga, yoki ikkala oyog‘iga tayanib turganligi e’tiborga olinishi muhimdir. CHunki shunga qarab tananing holati o‘zgarib turadi. Elka, bosh, bel, tos, qo‘l va oyoqlar turishi har xil ko‘rinishga ega bo‘ladi. Ma’lumki, odam umurtqa pog‘onasining tuzilishi ham uning ko‘rinishiga ta’sir etadi. Ba’zi tanalarning turishi tik bo‘lsa, ba’zilari bukchayibroq ko‘rinishi shundan.

Tananing har bir a’zosi gorizontal va vertikal chiziqlarga nisbatan qanday vaziyatda ekanligi muntazam ravishda tekshirib turiladi. Butun tananing tayanch nuqtasi mavjud bo‘lib, u og‘irlilik qaysi oyoqqa tushayotganiga, yoki ular oralig‘iga tushayotganini aniqlashda qo‘l keladi. U to‘g‘ri, joyida topilmagan bo‘lsa, odam qiyofasi og‘ib, yiqilayotganga o‘xshab chiqib qolishi mumkin. SHu sababdan tekshirish uchun ba’zan osma shovundan foydalanish mumkin. U barcha perpendikulyarlarni topishda zo‘r vositadir.

Odam qiyofasini chizishni o‘rganishda uni skelet bilan solishtirib tekshirish, tananing asosiy mushaklari tizimini Gudon «ekorshe»sidan ko‘rib o‘rganish maqsadga muvofiq. Ana shunda chizuvchi tananing qaysi bo‘lagiga urg‘u berishi va bat afsil ishlashi kerakligini tushunishi oson bo‘ladi. CHunki suyaklar tizimini belgilovchi skelet va mushaklar tana qismlarining shakli-shamoyilini yaqqol qilib aks ettirishda yordam beradi. Umuman yuqoridagilarni sifatli bajarilishi uchun har bir talaba plastik anatomiyanidan yaxshi xabardor bo‘lishi zarur. SHuni ham ta’kidlash o‘rinlikni, ishni bajarishda soya-yorug‘ munosabatlarini to‘g‘ri topib tasvirlash ham ahamiyat kasb etadi. CHizish mobaynida katta soyalar va yorug‘, yarimsoyalarni birvarakay belgilab tuslab borilishi tasvirning hajmli ko‘rinishini

ta'minlaydi. Umum tanani aks ettirishda uning mayda qismlarini ham yo'l-yo'lakay aniqlashtirib boriladi, ammo bunda yaxlitlikka putur etkazilmasligi kerak. Tasvirlash jarayoni izchillikda bosqichma-bosqich olib borilsa, oxirida barcha tomondan ish tekshirib umumlashtirilsa vazifa yaxshi chiqishi ta'minlanadi. SHuni ham aytib o'tish kerakki, vazifani tugal holga keltirish tajribaga, ya'ni ko'p, erinmay, sabot bilan ish olib borilishiga bog'liqdir. Nazariy bilimlarni o'tmish usta rassomlari merosini kitoblardan o'qib o'rganish yordamida oshirib borilishi kerak.

Badiiy ta'limda qalamchizgilarning ahamiyati. Hayvon va qushlarning anatomik tuzilish xususiyatlari xamda ularning qalamchizgilar vositasida tasvirlash usullari. Odam bosh suyagining tuzilishi haqidagi dastlabki ma'lumotlar

Badiiy ta'lim va umuman tasviriy san'at sohasida qalamchizgilarning ahamiyati naqadar katta ekanligiii rassomchilikka qiziquvchi har bir inson yaxshi biladi. Bo'lajak o'qituvchi-musavvir nafaqat amaliy ishni, balki nazariy masalalarni ham puxta o'zlashtirishi zarur bo'ladi. U qalamtasvir yaratishning muhim ekanligini o'z o'quvchilariga tushuntira bilishi kerak. Bunda albatta u kitob, qo'llanmalardan foydalanadi. Ularda esa rasm chizishning barcha qonun-qoidalari tushuntirib berilgan.

Ma'lumki, qalamtasvirning muhim chizish qoidalari qadim zamonlardan kashf etilib, takomillashtirilib kelingan. Aytishlaricha, birinchi tashkil etilgan ilk Badiiy akademiyalarda rasmni qalamda chizish etakchi o'ringa qo'yilgan. Uni yaxshilab o'rganib olmagan talaba tasvirga rang berish mashg'ulotiga, ya'ni rangtasvir yaratish ishiga yaqinlashtirilmagan. SHu sababdan akademik rasm chizish

mashg‘uloti muhim hisoblanib, o‘quv-ta’lim jarayonining ko‘p qismini egallagan. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi qush va hayvonlarning tasvirini chizishni ham boshqa vazifalar qatorida puxta o‘rganishi kerak. CHunki kasb-hunar kollejlari, hamda maxsus maktab amaliyotida, o‘qitish, o‘rgatish dasturlarining barchasida bu mavzu mavjuddir.

Animalistik (jonli tabiat, hayvon va qushlarni aks ettirish sohasi) rasmlar ishslash tasviriy san’atning juda qiziqarli sohasidir. U ko‘pincha turli voqeaband kompozitsiyalar, kitob bezaklari yaratilishida foydalaniladi. Ayniqsa, bolalar uchun chiqariladigan adabiyotlarda ko‘l keladi.

Mamlakatimiz va chet el rassomlari ijodida ham animalistik mavzularni ko‘plab uchratamiz. Qadimgi usta rassomlardan Dyurerning, Rembrandtning, Delakruaning hayvonlar va qushlarni aks ettirgan qalamchizgilarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Yaponianing qadimiylarini tasviriy san’atiga oid namunalarda ham qush va turli jonivorlarning ajoyib-ajoyib tasvirlari ko‘p uchraydi. Rus animalist rassomlari P.Sokolov, V.Serov, A.Stepanov, I.Efimov, V.Vatagin grafik ishlarida ham jonzotlar tasvirining yaxshi namunalari bor. O‘zbekiston rassomlari ijodida ayniqsa grafika va haykaltaroshlik sohasida bu mavzudagi ijod namunalari uchraydi. Masalan, T.Esonov, P.Ivanov, T.Tojixo‘jaev, A.Boymatov va boshqa haykaltaroshlar, shuningdek X.Rahmatullaev, A.G‘ulomov, G.Li, Q.Basharov kabi bir qator grafik rassomlarning asarlarida bu mavzuga oid ijod namunalari mavjud.

Rangtasvirda asar yaratuechilar orasida animalistik mavzudagi namunalarning mualliflari sifatida M.Toshmurodov va Q.Akbarovni ko‘rsatishimiz mumkin.

Qush va hayvonlarning tulumlarini rasmini chizish tirik jonzotlarni tasvirlashdan avvalgi bosqichdir, desak yanglishmaymiz. CHunki harakatdagi jonivorlarni chizish ancha murakkab bo‘lyb, bu ishni boshlashdan avval puxta tayyorgarlikni o‘tash kerak. SHunda tulumlarni batafsil o‘rganish ancha qo‘l keladi. Ular orqali hayvon va kushlarning skeleti va tana tuzilishi xususiyatlari taxlil qilinib o‘rganiladi. O‘ziga xos o‘lchamlari, ularning yaxlitligi, mutanosibliklari chizish-tasvirlash jarayonida anikdanadi, ifodalanadi. Agar shunday maqsad qo‘yilgan bo‘lsa hajmi ham ishlab aks ettirilady. Yana bir muhim tomoni shundaki, qush yoki hayvonning rasmini chizganda shakldan tashqari uning ichki sinch tuzilishini belgilovchi umrtqa pog‘onalari va boshqa suyak bo‘g‘inlariga ham ahamiyat berilishi kerak.

Tasvirning soya va yorug‘ligini ko‘rsatish uchun turli tasvirlash vositalaridan unumli foydalanish mumkin. Ular chiziqlarni turli yo‘nalishlarda yo‘naltirib ishlov berishga imkon beradi.

SHuni ham aytib o‘tish kerakki qushlarni va turli jonivorlarni chizishdan avval ularning skeletini qanday tuzilishga ega akanligini bilib olish, mavjud bo‘lsa skeletini alohida tasvirlab mashq qilish kerak.

Odam boshini chizishda alohida ahamiyatga ega bo‘lgan narea:uning asosi, ya’ni bosh chanoq suyagidir. Uning gipsdan tayyorlangan namunasini chizib mashq qilish ancha foydali bo‘lib, hamma qismlari yaxlit ko‘rinib turadi. Bosh suyagini chizishga gips namunali o‘rganib olgach kirishish mumkin. Bunda iloji boricha uchta turli tomondan, turli holatlarda ko‘ringan vaziyatdagi bosh chanog‘i bitta yaxlyt qog‘oz sathida tasvirlanishi shart.

CHanoq ikkita asosiy qismdan tarkib topgan bo‘lib, ular miya qismi[^] va yuz qismlaridir. Miya qismi o‘z navbatida chakka, leshona, ensa bo‘laklaridan iborat. Ular va boshqa mayda ichki qismlar o‘zaro tishsimon bo‘rtma ulanmalar bilan birikib turadi. Suyakning peshona qismi bosh shaklini belgilab turuvchi ahamiyatga ega. Bundan tashqari yonoq, burun bo‘rtmasi xam inson yuzining shaklini qanday bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi. Qisqa qilib aytganda bosh chanoq suyagining barcha mayda bo‘laklari uning qanday nomlanishini talaba o‘rganib, plastik anatomiyaga oid kitoblarni mutolaa qilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bosh suyagini to‘g‘ridan, yondan va burchak ostida ko‘rinishini bitta qog‘ozda bir paytda ishlab, navbatma-navbat ishlov berilsa uni o‘rganish qulay bo‘ladi. Asosiy ko‘p davom ettiriladigan qalamsuratni ishlashdan avval albatta kichik musavvadalar chizish shart. SHunda har bir tasvirni o‘zaro muvofiqlashtirib kompozitsiyasini topish engil ko‘chadi.

Intererda inson qomatining turli holatlardagi qalamchizgilari. Turli tasvirlash vositalari

Tasvirlarni chizishda, xoh u natyumort bo‘lsin, xoh odam tasviri, yoki manzara bo‘lsin, barchasida aks ettirishning turli-tuman vositalari va usullaridan unumli foydalanishi kerak. Bunday yo‘l tutish bilimni, mahoratni, tajribani oshirishga xizmat qiladi.

Odam qiyofasini chizishni o‘rganish jarayonida grafik uslublarni qo‘llash esa eng sinalgan yo‘ldir. CHunki eng qulay va tez bajariladigan har xil ashyolar (qalam, sangina, couss, pastel retush va boshqalar) yordamida amalga oshiriladigan tasvir ayniqsa qiziqarli chiqadi. Bunday qalamchizgilarni ishlaganda rangli (tus berilgan) qog‘ozlardan foydalanish o‘quv-mashq ishlarining badiiyligi darajasini ham oshiradi. Voqelikni obrazli ifoda etish omili bo‘lib xizmat qiladi.

Intererdag‘i odam qiyofasini tezlavhalarini turli holatlarda tasvirlashda atrof muhitning ko‘rinishi ham e’tiborga olinishi kerak. YOrug‘lik manbaining qaysi tomondaligi chizilayotgan ob’ektning naqadar hajmli va bo‘rtiq tasvirlanishida rol o‘ynaydi. SHu sababli ish o‘quv mashq sifatida bajarilayotganligidan qat’iy nazar jiddiy z’tiborli yondashuvni talab etadi.

Ma’lumki, odamni tasvirlashni o‘rganishda uni tezlikda chizish mashqlari muhim ahamiyat kasb etadi. Mashq vazifalar kichikroq qog‘ozlarda, so‘ngra kattaroq qog‘ozlarda bajarilishi maqsadga muvofiq. Kichik-kichik qalamchizgilar ko‘pincha yumshoqroq oddiy qalamda, kattaroq tasvirlar esa iloji boricha ko‘mir qalamchalari, retush, sangina, sous va pastelda ishlansa qulay bo‘ladi. Buning sababi ularning ishlatilishi qulaylidigadir. Bunday vositalar bilan tezkorlikda katta sathlarda ifodali tasvirlar ishlash mumkin. Ammo bu ularni ishlatish oson ekan degan tushunchani tug‘dirmasligi kerak. Masalan, retush qalami o‘ta qora bo‘lganligi uchun uni rangli, ya’ni biror xolis tus berilgan qog‘ozga rasm solishda ishlatish mumkin. Oppoq qog‘oz sathida undan foydalanish ancha tajriba va mahoratni talab etadi. Ayniqsa tezkor qalamlavhalarni chizganda retush juda qulay bo‘lib, kerakli joylarda chiziq tarhlarini qo‘l barmoqlari yoki qog‘oz parchasi bilan surkatib, tasvirlanayotgan narsaning soya, hatto yarimsoyalarini juda ifodali va chiroyli qilib ko‘rsatish imkoniyati bor.

Rangli qog‘ozda ishlanganda retush kalami va ko‘mir qalamchalarini oq rangli pastel yoki bo‘r bilan aralash texnikada ishlatish yaxshi samara beradi.

Ma’lumki, sousni suvgaga qorib mo‘yqalamda qog‘ozga surtib tus berilsa, so‘ngra tasvirni retush qalamida ishlansa, o‘chirg‘ichdan ham unumli, bilib foydalanilsa, har qanday o‘quv-mashq vazifani namunali va chiroyli qilib chiqarish mumkin. Tasvirning eng yorug‘ qismlarini o‘chirg‘ich yordamida ustalik bilan o‘chirib bo‘rttirilsa, eng to‘q soyalarning sathi quyuq, qora sous bilan bo‘yab yopilsa, ish hajm tomondan juda fazoviylik kasb etadi.

Sangina qalamtasvirlarni ishlashda qo'llanilishi ham foydali. U bilan har qanday tasvirni tez va ifodali qilib chiqarsa bo'ladi. Faqat buning uchun uning texnikasini egallash kerak.


Ma'lumki sanginaning to'q jigarrang hamda qizg'imtir jigarrang turlari bo'ladi. Ularni ham tus berilgan oxrasimon rangli qog'ozlarda unumli qo'llash mumkin. Sanginani surkatib soyalarning katta-katta qismlarini yopish imkoniyati ham borligi, ish rivojini tezlashtiradi.

YUqorida keltirib o'tilgan barcha tasvirlash vositalarini uzoq muddatda bajariladigan, hamda tezkorlik bilan ishlanadigan qalamtasvirlarda birdek muvaffaqiyat bilan qo'llash mumkin.


Odam qomatini turli holatlarda, vaziyatlarda harakatli ko'rinishlarda interer muhiti sharoitida tasvirlash ancha murakkab vazifalardan hisoblanadi. Agar ular tez muddatda ishlanishi kerak bo'lsa, tezchizgi lavhalari ko'rinishida bo'lsa, bir nechta tasvirni bitta qog'oz sathida chiroyli kompozitsiyada joylashtirib bajarish ko'p samara beradi. CHunki unda har bir chizilgan har turli holatlarda turgan odamlar qiyofasi o'zaro solishtirib ishlanadi, o'lchamlari bir-biriga moslanadi va shuning natijasida tasvirlar guruhi bog'langan mazmun kasb etib, badiiy ko'rinishga ega bo'ladi.

Inson qaddi-qomatini chizishga albatta tezkor tasvirlar ishslash, ko'proq mashq qilish talab etiladi. Ayniqsa suratning qismlari nisbatlari, katta shaklning yaxlitligiga e'tibor qaratilishi kerak. So'ng tana holati, uning qanday harakat holatida namoyon bo'layotganligi muhim bo'lib, uni to'g'ri topish va aks ettirish kerak.


YUqorida aytilgan barcha holatlar nazariy va amaliy tomondan yaxshi o'rganilsa, kitoblar, maxsus adabiyotlar mutolaasiga e'tibor berilsa har qanday quntli talaba uning oldiga qo'yilgan murakkab vazifalarning barchasini muvaffaqiyatli ado etadi. YAxshi, a'lo natjalarga erishadi.



Gips bosh qalamtasviri.



Bosh chanog'i: 1. Peshona suyagi. 2. Peshona do'ngliklari. 3. Qosh usti yoylari. 4. CHakka suyagi chuqurligini chegaralovchi chiziqning boshlanishi. 5. YOnoq suyagi. 6. YOnoq yofi. 7. YUqori jag'. 8. Pastki jag'. 9. Pastki jag'ning chiquvchi tarmog'i. 10. Tepa suyagi. 11. Tepa suyagi do'ngligi 12. CHakka suyagi. 13. Ponasimon suyak. 14. So'rg'ichsimon o'simta. 15. Ensa suyagi.




Bosh suyagini turli holatlarini tasvirlash mashqlari.





Ekorshe va elka kamari skeletining qisqa muddatli qalamchizmaları.


Elka kamarining harakat holatini chizmalavhalari.



Odam qomatini borliqda aks ettirish



YAlong'och va kiyimdagı qiyofachını parallel aks ettirovchi qalamtasvirler.



Turgan odamning qomatini uzoq muddatli qalamtasviri.

II BOB. Rangtasvir. «Rangtasvir» tushunchasi

Tasviriy san'atda uiing rangtasvir va grafika tushunchalari mavjud bo'lib, ular bir-biridan ishlanish yo'llari hamda uslublari, tasviriy vositalari bilan farqlanib turadi. Rang inson hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi hodisadir. U turli vaziyatlarda odamga har-xil ta'sir etadi. SHuning uchun biz ayrim paytlarda ranglarni «quvonchli» va kayfiyatimizni tushkunligini ifoda etish mumkin bo'lган «xira» deb atashimiz beziz emas. Inson qadimgi paytlardanoq rangning ana shunday xususiyatlarini hisobga olib, o'z faoliyatnda unumli foydalanib kelganligi ma'lum. Ayniqsa, shunday vosita sifatida rassomlar undan ustalik bilan foydalanganlar. Asarlariga har xil ranglar bilan jilo berib, odamlar kayfiyatiga turlicha ta'sir etib, fikrlar uyg'otadigan tasvirlar yaratishga erishganlar. SHuning uchun tasviriy san'atning juda ko'p turlari va janrlarida rang, hamda uni ishlata bilish, juda katta ahamiyatta egadir. Ammo u qalamtasvirning muhim ekanligi bilan quvvatli ekanligi ma'lum haqiqatlardan eng asosiysi, desak to'g'ri bo'ladi. SHuning uchun qadimdan qalamtasvir chizishga ranggasvirning asosi sifatida qarash shakllangan. Ammo rang xususiyatlarini yaxshi bilish ham har bir tasvir chizishni o'rganuvchi uchun juda ahamiyatlidir.

Maktab fizika kursidan ma'lumki ranglarning deyarli hammasi spektrning asosiy uch rangini qo'shish orqali olinadi. Ular qizil, sariq, zangori ranglardir. Bular asosiy ranglar deb ataladi. Asosiy ranglarni qo'shish orqali qo'shimcha ranglar olinadi. Masalan, qizil va zangorini qo'shish orqali binafsha, qizil va sariqni qo'shish orqali zarg'aldoq, sariq va zangorini qo'shish orqali esa yashi ranglarni hosil qilib mumkin. Ranglar tabiatan ikki xil xususiyatli: iliq va sovuq bo'ladi. Iliq ranglar qatoriga qizil, sariq, zarg'aldoq va ularga yaqin ranglar, sovuq ranglar qatoriga yashil, zangori, binafsha va ularga yaqin bo'lган ranglar qiradi. SHuningdek axromatik va xromatik ranglar ham bo'ladi. Oq, kul rang va qora ranglar axromatik ranglardir. Qolgan ranglarning hammasi xromatik ranglardir. Axromatik ranglar bir-biridan faqat och-to'qligi bilan farq qiladi. Masalan, oq, kul rang, kora, qoraroq, juda qora va boshqalar. Xromatik ranglar esa bir-biridan rang tusi ya'ni - qizil, sariq, ko'k, yashil, jigarrang va hokazo, och-to'qligi ya'ni – och qizil, to'q sariq, to'q qizil, och sariq kabi va to'yinganligi ya'ni yorqin, xiraliliqi bilan farq qiladi. Rang doirasida qarama-qarshi joylashgan ranglar «kontrast»

ranglar deb ataladi. Kontrast ranglar bir-biridan keskin farq qilib, biri ikkinchisini yanada yorqin qilib ko'rsatadi. Masalan, yashil rang fonida qizil rang juda yorqin bo'lib ko'rinadi va aksincha qizil rang fonida yashil rang ancha yorqinlashadi. Rang bilan ishslashda rang garmoniyasini, ya'ni ranglar uyg'unligini bilish katta ahamiyatga ega.

Narsa va hodisalarini tasvirlashda moybo'yoq, tempera, akvarel, guash kabi bo'yoqlar ishlatiladi. Narsalarni bo'yoq yordamida tasvirlash ancha murakkab jarayon bo'lib, kishidan ranglarning xususiyatlarini va ularni samarali, uquvli tarzda ishlatish usullari (texnikasini) bilishni taqozo etadi. Bo'yoqlar yordamida narsaning hajmi, fakturasi va fazoviy holatini tasvirlash rangtasvirning asosini tashkil etadi. Har bir narsani chizuvchi tarvirlar ekan, u ranglarga jiddiy e'tiborini qaratishi kerak. Ana shunda rangning tabiatdagagi ko'rinishi va tasvirdagi ko'rinishi farqli ekanligini bilib olish mumkin. CHunki narsaning rangi bizdan uzoq-yaqinligiga qarab o'zgarib ko'rinadi. Buning sababi esa havo, atrof-muhitning predmet ko'rinishiga ta'siridandir. Qog'oz sathida ranglar munosabatlarini to'g'ri nisbatlarda torib ishlatish rangtasvirning haqqoniy aks etishida muhim aqamiyat kasb etuvchi omillardan eng muhimi deb hisoblasak o'rinlidir. Akvarel bo'yog'ida ishslash ham o'z navbatida jiddiy o'qib o'rganishni, qattiq mashq qilishni talab etuvchi mashg'ulotdir. Buning uchun amaliy ishning o'zi kifoya qilmaydi. Ishning nazariy qismi amaliyot bilan bir paytda puxta o'rganib borishni taqozo etadi.

Axromatik va xromatik, iliq va sovuq, asosiy va qo'shimcha ranglar

Rangtasvir ishslashda o'ning qonun-qoidalarini, usul va texnologiyasini o'rganish muhim ahamiyatga ega vazifalardandir, desak xato bo'lmaydi. SHunday zarur shartlar qatorig'a axromatik va xromatik ranglar haqidagi bilimlar ham kirishi tabiiydir.

Ko'zimiz ko'ra oladigan tabiatdagagi hamma ranglarni shartli ravishda ikkiga: axromatik va xromatik ranglarga bo'lish mumkin. Oqdan to'q qoragacha bo'lgan ranglar axromatik ranglarga (oq, kul rang, qoramtil, qora, to'q qora) qolganlari esa xromatik (qizil, sariq, ko'k va hokazo) ranglarga kiradi.

Xromatik ranglar o'z navbatida, shartli ravishda yana ikkiga, issiq va sovuq ranglarga bo'linadi. Issiq ranglarga olov, quyosh, qizigan narsalarning rangini

eslatuvchi qizil, sariq, zarg‘aldoq ranglar kiradi. Muz, havo, suvlarning rangini eslatuvchi ko‘k, moviy, binafsha ranglar sovuq ranglarga kiradi: YAshil va binafsha ranglar goh issiq, goh sovuq ranglarga kirishi mumkin. CHunki yashil rang sariq va ko‘k ranglarning aralashmasidandir. Binafsha rang esa qizil va ko‘k ranglarning aralashmasidan hosil bo‘ladi. Ko‘rinib turibdiki, bu ranglar issiq va sovuk, ranglarning aralashmasidan hosil bo‘lgan. Aralashtirishda issiq rang miqdori sovuq rang miqdoriga nisbatan ko‘proq bo‘lsa, hosil bo‘lgan rang issiq rang qatoriga, sovuq rang miqdori ko‘proq bo‘lsa, sovuq ranglar qatoriga o‘tishi mumkin. Xuddi shunday binafsha pangida qizil rang ko‘proq bo‘lsa issiq, ko‘k rang ko‘proq bo‘lsa sovuq, ranglar qatoriga kiradi. Demak o‘quv mashg‘ulotida rangtasvirni ishslashda qo‘yilmadagi narsa va buyumlarning yorug‘-soya nisbatlari, shuningdek rang nisbatlarini ham ochib aniq ko‘rsatish muqim ahamiyatga ega.

Ranglarning tabiiyligini tasvirda to‘g‘ri bajarish ancha qiyin ish hisoblanadi. Bunga jiddiy mehnat, nozik did va zo‘r mushohada orqali erishish mumkin. Ayniqsa natyurmortdagি narsalarning och-to‘qlik darajalarini farqlashga, undagi tus birligini tushunishga o‘rganish uchun natyurmortni bitta rangda tasvirlash katta ahamiyatta ega. Bu usulda rasm ishslash keyinchalik qiyin natyurmortlarning rangli tasvirini bajarishga o‘tishni ancha osonlashtiradi. Bir rangda yozish usuli «grizayl» deb ataladi.

Grizayl usulida rasm ishslash turli ranglar vositasida ish usuliga o‘tish uchun tayyorgarlik bosqichi bo‘lib, unda mo‘yqalamni ishlatish yo‘llari va akvarel bo‘yoqlarining xususiyatlarini o‘rganish uchun imkoniyat yaratadi. Bu texnika bilan bir nechta natyurmortlarni tasvirlab o‘rgangandan so‘ng, barcha rang xillari bilan ham natyurmort ishslash ancha oson bo‘ladi.

Natyurmortlar ko‘pincha xonalarga qo‘yib ishlanadi. Ammo ba’zan uni tabiat qo‘ynida tashkil qilib, tasvirlashga ham to‘g‘ri keladi. SHunday paytda natyurmortni ishslashdan avval, uning rang xususiyatlarini tahlil qilib, tushunib olish juda muhimdir. CHunki, xona ichiga qo‘yilgan natyurmortga derazadan tushayotgan nur – narsalarning yorug‘ qismida sovuq, ranglarni beradi. Buyumlardan tushayotgan soyalar esa aksincha, iliq, issiq bo‘lib ko‘rinadi. Ochiq havodagi, tashqaridagi chizilayotgan narsalar buning aksidir, ularning soyasi sovuq, yorug‘ qismi esa iliq bo‘lib ko‘rinishi mumkin. Ana shunday holatlarni diqqat bilan kuzatib, so‘ng e’tibor bilan

tasvirlash ish sifatining yaxshi bo‘lishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Ma’lumki ranglarni ko‘rish va idrok etish qobiliyati asta-sekin mashqlar orqali shakllanadi. Bunda akvarel bo‘yoqlar nomlarini aniq bilib olish va ularni o‘z o‘rnida jo‘yali qo‘llash muhimdir.

Akvarel bo‘yoqlari 24-16 xil rangli to‘plamlar holida bo‘ladi. Ularni ishga tayyorlash vaqtida har birining ustiga yozib qo‘yilgan yorlig‘ini asta ko‘chirib olib, bo‘yoq solingan plastmassa idishchaning tagiga yopishtirib qo‘yish va nomlarini eslab qolish kerak. Ular quyidagicha tartibda bo‘lishi mumkin. YA’ni: limon rang kadmiy, sariq kadmiy, och oxra, tabiiy siena, oltinsimon sariq, zarg‘aldoq kadmiy, qizil oxra, kuydirilgan siena, och qizil, guldor, qizil kraplak. karmin (yorqin qizil), binafsha, kraplak, ultramarin, ko‘k kobalt, havo rang, zumrad yashil, yashil permanent, sabza (yashil), tabiiy umbra (to‘q, jigar rang), jigar rang mars (och), kuydirilgan umbra (jigar rang), sepiya (chiroyli to‘q, jigar rang), qora.

Tabiatdagi narsalarning aniq, rangini belgilab ko‘rsatadigan tayyor bo‘yoqlar mavjud emas. Ammo etuk rassom ranglarning o‘zaro ta’siri va ko‘rinish holatlarini idrok etib ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda har qanday narsani ham aks ettira oladi. Tasvirda shunday joziba va hayotiy haqiqatga erishish uchun rassomga ranglar nisbatini bilish, ranglar orasida qandaydir bitta rangning turli xil tovlanishini hisobga olib ishlata olishiga yordam bergen. Masalan, olov rang qizilni kuchliroq «yal-yal» yonadigan qilib tasvirlash uchun shu rang atrofidagi narsalarning soyasini ko‘kimir, havo rang, yashil zangori tuslarda beriladi. Tasvir bilan chizilayotgan narsa, holat o‘rtasida to‘la o‘xshashlik bo‘lishi uchun ularning rang nisbatlarida ham o‘xshashlik bo‘lishi shart. Bunga erishish uchun rangshunoslik fanining asoslarini chuqur o‘rganish va amaliy ish jarayonida bu masalalarga qayta-qayta murojaat qilish kerak. Har xil bo‘yoqlar bilan (akvarel, guash, moybo‘yoq) natyurmortlarni tasvirlash uchun yuqorida qayd etilgan tajribalarni o‘tkazib ko‘rish, bo‘yoqlarning texnologiyasi xususiyatlarini yaxshi bilish, ularni ishlatish usullarini o‘zlashtirish uchun ko‘plab mashqlar bajarish tavsiya etiladi.

Tasviriy can’atda akvarel bo‘yoqlar bilan ishslash salmoqli o‘rinni egallaydi. Bunga sabab matabda rasm ishslashni o‘rganishda akvarelning etakchi rol o‘ynashidir. SHuning uchun uni o‘qitayotgan o‘qituvchining o‘zi ham shy sohani puxta egallagan bo‘lishi zarur.

Rangning xususiyatlari. Akvarel bo‘yoqda ishlash texnikasi. Spektr.

Ranglar doirasi xaqida

Talabalar rangshunoslik nazariyasini ayniqsa puxta bilishlari shart. SHuning bilan realistik rangtasvirning nazariy asoslari ilmini o‘zlashtirish va ayni paytda amaliy mashq qilish natijasida savodli rasm ishlash yo‘llarini o‘rganish mumkin. Ranglarning tabiatda qanday hosil bo‘lishi va tarqalishi muammosi qadimdan olim va rassomlarning diqqatini tortgan. Mashhur olimlar Nyuton, Lomonosov, Gelmgolslar ranglarning mohiyatini ilmiy asoslarda tekshirganlar. M.V.Lomonosov fanda birinchi bo‘lib asosiy ranglarni kashf etgan. I.Nyuton qator tajribalar o‘tkazib, oq yorug‘likni ko‘p rang ekanligini isbotlagan. Ekranda spektr ranglarini hosil qilgan. Buning uchun Nyuton quyosh nurini qora pardaning kichik tirqishidan o‘gkazib uning yo‘liga uch qirrali prizma qo‘ygan, natijada ekranda har xil ranglardan iborat keng yorug‘lik yig‘indisi hosil bo‘lgan. Ekranda spektr ranglari paydo bo‘lib, ular quyidagicha joylashgan: qizil, sariq, zarg‘aldoq, yashil, zangori, havorang va binafsha ranglar.

XIX asrda nemis tabiatshunos olimi G.L.Gelmgols rangshunoslik nazariyasida muhim yangilik yaratdi. Ko‘p yillik tajribalar asosida xromatik ranglarning uchta asosiy alomati – rang tusi, rangning och to‘qligi va to‘yinganligi asosida turkumlash kerakligini ko‘rsatdi.

Biror xromatik rangga ochroq kulrang qo‘shsak, uning jozibaliligi pasayib, nursizlanadi. Bu hol rangning kam to‘yinganligidan, ya’ni uling tarkibida bo‘yoqning kamayganligidan darak beradi. Demak, rangning to‘yinganligi yoki to‘yinmaganligi deganda uning kul rangga nisbatan rangdorlik darjasи, tozaligini tushinish kerak. Rang doirasi ikki teng bo‘lakka bo‘linsa, birinchi yarmida qizil, zarg‘aldoq, sarg‘ish, sariq ranglar, ikkinchi yarmida esa havorang, zangori ko‘k, binafsha ranglar joylashadi. Doiraning - birinchi yarmidagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagilar esa sovuq ranglardir. Bunday nomlanishiga sabab qizil, sariq ranglar olovni, qizigan temirni, cho‘g‘ni eslatса, havo rang, zangori, yashillar esa muzni, suvning rangini eslatadi.

Ikkita spektr rangi ustma-ust tushirilsa, ranglar bir-biriga qo‘shilib. murakkab rang hosil bo‘ladi. Qizil rang, havo rang va binafsha ranglar bilan qo‘shilganda

chiroyli tusdagi pushti, to‘q qizil, safsar ranglarni hosil qiladi. Qo‘shilganda oq rang beradigan spektrli ranglar qo‘sishimcha yoki to‘ldiruvchi ranglar deyiladi. CHunki ular oq rang hosil bo‘lgunga qadar bir-birini to‘ldiradi. Bunday ranglarga sariq, havo rang, qizil, zangori, yashil va binafsha ranglar kiradi. Bo‘yoqlarning qo‘shilishi bilan spektraviy ranglarning qo‘shilishi orasida farq bor. Uchta asosiy spektraviy rang: qizil, yashil va havo rang qo‘shilganda oq rang hosil bo‘ladi. Asosiy qizil, sariq va havo rang bo‘yoqlari qo‘shilishidan esa qora rang hosil bo‘ladi. Spektrning sariq va havo ranglari qo‘shilishi natijasida oq hosil bo‘ladi. Biroq sariq va havorang bo‘yoqlarni aralashtirsak yashil rang hosil bo‘ladi.

Demak, ikkita rangni optik aralashtirish natijasida oq yoki unga yaqin nim kul rang hosil qiladigan ranglar o‘zaro to‘ldiruvchi (qo‘sishimcha) hisoblanadi. Masalan, to‘q qizil va yashil, zangori va zarg‘aldoq qizil, sariq, havo rang, sarg‘ish yashil va binafsha ranglar o‘zaro to‘ldiruvchidir.

Tasvir bilan chizilayotgan narsa, holat o‘rtasida to‘la o‘xshashlik bo‘lishi uchun ularning rang nisbatlarida ham o‘xshashlik bo‘lishi shart. Tasviriylar san’atda akvarel bo‘yoqlar bilan ishslash salmoqli o‘rinni egallaydi. Akvarel – rangtasvirning eng nozik turlaridan biri. Qadimdan akvarel o‘zining nafisligi va ranglarning yorqinligi bilan ko‘pgina rassomlarni qiziqtirib kelgan. Akvarel lotincha so‘z bo‘lib «suv bilan suyultirib ishlatiladigan bo‘yoqlar» ma’nosini anglatadi. Akvarel tarkibiga bo‘yoq moddasi (o‘simlik yoki ma’danlarning mayin qilib yanchilgan kukuni) va biriktiruvchi modda sifatida olcha elimi, gletsirin va ozroq asal kiradi. Bular hammasi suvda osongina eriydigan bo‘lgani uchun bo‘yoqqa suv qo‘shib suyultirib ishlatiladi.

Akvarelda oq rang ishlatilmaydi. Uning o‘rnini oq qog‘ozning o‘zi o‘taydi. Qog‘oz oppoq, etarli darajada qalin va yuzasi g‘adir-budir bo‘lishi zarur. U agar juda silliq bo‘lsa, sathida ranglar etarli darajada yotmaydi. Narsa va buyumlar tasvirlarini bo‘yash jarayonida umumiyyadan xususiyga yoki aksincha xususiyidan umumiyyga qarab boriladi, nihoyat ish yaxlitlash bilan yakunlanadi.

Rangtasvirda turli sirtlarni ifodalay bilish

Rangtasvir ishslashning nozik tomonlari ko‘p. Ulardan biri turli sirtlarni ifodali tasvirlash masalasidir. CHunki natyurmortda ham, odam tasvirini bajarganda ham

chizilayotgan narsalarning moddiy ekanligini ko'rsatish muhim hisoblanadi. Buyumlarning tasvirdagi moddiyligi, qanday ashayodan yasalgani yoki tarkib topgani avvalambor uning soya-yorug'ligini aks etgirish vositasida ko'rsatiladi. Turli materiallardan yasalgan buyumlar sirtining o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-birlaridan farqlanib turadilar. Masalan, silindrik shakldagi buyum o'zining soya-yorug' hamda yarimsoya va aks shu'lalarining bir-biriga silliq ko'rinishda o'tishi sababli ajralib turishi bilan xususiyatlidir. Xuddi shunday shakl-shamoyilga ega bo'lgan shisha idishda esa soya bilan yorug' qismi, yarimsoyalar chegarasi yaxshi sezilmaydi. Uning shaklini faqat yiltirab turgan shula (blik) va aks shu'la (refleks)lar bo'rttirib ko'rsatishi mumkin. Metalldan yasalgan buyumlarda ham shunday holatni ko'rishimiz mumkin. Agar narsalarning xuddi ana shu xususiyatlarini qalamtasvir yoki rangtasvir yordamida o'xshatib tasvirlasak, ularning qanday ashayodan ekanligi (materiali) seziladi. Masalan, metalldan, shishadan, yog'ochdan, gipsdan va hokazo narsalardan tayyorlanganligi tasvirdan bilinib turadi. Narsaning qanday ashayodan ekanligi tasvirning tarxi, rangi, tusining to'q yoki ochligi bilan ham ajralib turadi. Ular naturaga, asliga har tomonlama o'xshatib, mutanosib qilib olingan bo'lsa shunday sifatga ega bo'ladi.

Inson tanasi, boshi, qo'l, oyog'i va boshqa a'zolarini tasvirlash paytida ayniqsa kiyim-kechagi, bosh kiyimi va boshqalarning sirti ko'rinishi aslidagidek o'xhab chiqishi uchun ular - ham rang, tusi xususiyatlari bilan to'liq aks ettirilishi kerak. Inson, tanasi tasvirlash uchun juda murakkab ob'ektdir. SHu sababli u boshqa narsalarga qaraganda alohida mas'uliyat bilan, har hil texnik imkoniyatlarni qo'llab ishlanadi. Masalan, yuzdag'i va badanning boshqa joylari sirtida ko'p farqlar bor. YUz dag'alroq bo'lsa, bo'yin va bel qismlari nozik rang tuslarida ko'rindi, shunga yarasha tasvirlanadi.

Odam boshining rangtasvirini ishlashda hal etiladigai o'quv vazifalari.

SHaxsni o'xshatib aks ettirish

Odam tasvirini ishlash rassomdan ko'pdan-ko'p bilim talab qiladi. Bunday talablar o'qish o'rganish ham nazariy, ham amaliy tajribalar to'plashni, ularni ishda qo'llay bilishni taqozo etadi. Odam boshi va tanasini rangtasvirini ishlashdan avval natyurmrtlarni puxta ishlashni o'rganib olingan bo'lish kerak. Aks holda,

yaxshi natijalarga erishish mushkul bo‘ladi. Odam boshi tasvirini ishlashni bir-biri bilan uzviy bog‘liq holdagi bir nechta bosqichlarga bo‘lish mumkin. Ular quyidagilardir:

1. Bosh tasvirini «grizayl» texnikasida bajarish.
2. Bosh tasvirini kunduzgi yoruglik sharoiti muhitida tasvirlash.
3. Bosh tasvirini suya’iy yoritilgan holatini aks ettirish.
4. Bosh rangtasvirini ochiq havoda «plener»da tasvirlash.

Ma’lumki, ilgarigi saxnalarda aytib o‘tilganidek tasvir ishlashda chizilayotgan narsaning tusi (ton) ni to‘g‘ri aks ettirish, shunga muvofiq rangini berish muhim ahamiyatga ega. Bosh tasvirini ishlash mashqlarida ham, bu-asosiy narsadir. Buning uchun avval tasvirni to‘q-ochligini, shakl xususiyatlarini topib aniq tasvirlashni o‘rganib olish kerak. Bunda «grizayl» texnikasida mashq ishni bajarishga to‘g‘ri keladi. CHunki shunday qilinganda boshni hajmdorligi, shaklini yuzaga chiqarishni o‘rganish qulaydir. Undan tashqari bitta rang tusi bilan tasvir ishlanganda ko‘proq buyumning (natyurmortda), boshning (portretda) shakliga va hajmini ko‘rsatishga ko‘proq e’tibor berish mumkin bo‘ladi. CHunki rang tovlanishlari, jilvadorligi bunda ikkinchi darajali hisoblanib turadi. Bunday holda mo‘yqalam ishlatish texnikasi, usullarini ham ma’lum darajada takomillashtirib olish imkonи tug‘iladi.

Bosh tasvirini o‘rganish odatdagidek chizilayotgan shaxsning o‘ziga xos tomonlarini «tadqiq etish» dan boshlanadi. Buning uchun avval kalamchizmalar, bir nechta qisqa-qisqa muddatli ranglavhalar bajariladi. Bitta rangda, ko‘pincha jigarrang «mars»ni yoki qora rangni oq bilan qo‘shib ishlanadigan tasvirda odam, boshining shakl, to‘q-ochlik munosabatlari, fonga nisbatan qanday yaxlitlikda ko‘rinishi, undagi asosiy qismlarning tarxi belgilab olinadi. Ana shunday yordamchi ish bajarilgach asosiy vazifani boshlab, batafsil tasvirni ishlashga o‘tish maqsadga muvofiqdir. Uzoq muddatli tasvirda esa har bir mayda unsur ham z’tiborga olinib aniq ishlanadi.

Tasvirni bajarganda mo‘yqalamning yapalog‘idan foydalanishi har bir sathni bo‘lib-bo‘lib, shakliga mos ravishda bo‘rttirib aks ettirish imkonini beradi. CHunki mo‘yqalam shakl yo‘nalishi bo‘yicha ishlatiladi. Surtmalar har bir bo‘lakni ifodalaydi. Bosh tasvirini ishlashda uning atrof muhitdagi holatiga ham jiddiy z’tibor berish kerak. CHunki uning ko‘rinishiga atrofdagi barcha narsalar ma’lum

darajada o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Tasvirni yuzaga chiqarishda ayniqla orqa tomon (fon)ning o‘rni kattadir. CHunki chizilayotgan bosh unga nisbatan to‘q yoki och bo‘lib «siluet»da ko‘rinadi. SHu sababli qo‘yilmani ikki xil holatda, ya’ni ochiq va to‘q tusli ortlik (fon) bilan ishlab mashq qilish yaxshi samara beradi.

Tasvirlanayotgan bosh agar to‘g‘ridan yoki yon tomondan yoritilsa, undagi har bir bo‘lak (detal) bo‘rtib ko‘rinadi va. shunda uni yaxlit tasvirini ishlash qulay bo‘ladi. Avval katta shakl tus (ton) munosabatlari yaxlit qilib olingach mayda bo‘laklar ham batafsil ishlanadi. Bunda albatta soya-yorug‘, aks shu’la (refleks) larga e’tibor berilishi, o‘xshatib o‘z o‘rnida tasvirlanishi zarur. «Grizayl» vazifani bajarganda boshni sun’iy yorug‘lik manbai bilan yoritish yaxshi samara beradi. SHunday qilinganda chizilayotgan ob’ekt aniq, tiniq ko‘rinib turadi. Hajmi yaxshi anglashiladi. Boshning shaklini ko‘rsatishni uning soya joyidan boshlangani ma’qul, shunda tasvirni yaxlit ishlash imkoniyati paydo bo‘ladi. So‘ng yarimsoya, reflekslarga o‘tish mumkin. Avval fanni to‘liq ishlab olgach, keyin boshni tasvirlash yaramaydi. Ikkalasini birvarakay, teng qilib olib borgan yaxshi. SHunda tasvirni yaxlit qilib ko‘rsatish oson bo‘ladi. Boshni asosiy «siluet» ini topib soya-yorug‘ini lo‘nda qilib olingach, mayda unsurlarga ham o‘tish, ularni ma’lum darajada batafsil ishlash mumkin.

«Grizayl» vazifani ishlab tajriba orttirilgach rangda ham mashqlar bajarish mumkin. Bu holatda barcha rang tuslaridan unumli foydalaniladi. Rang jilvalarini mukammal o‘rganish ishida mashq-vazifani tashqarida, ochiq havoda, ya’ni «plener» sharoitida bajarish yaxshi natija beradi. Bunday ishni talaba uy ishi sifatida doimo ado etib turishi uning tajribasi ortishiga omil bo‘ladi.

Odam boshini rangtasviri ustida ish olib borish bosqichlari

Odam boshi rangtasvirini ishlash «grizayl» texnikasini o‘zlashtirib olingandan keyingi muhim qismlardandir. Ma’lumki tasvir ishlash xoh u qalamtasvir bo‘lsin, xoh rangtasvir bo‘lsin, akademik usulda shartli bosqichlarga bo‘lib olib boriladi. Bunday bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda, metodik ketma-ketlikda faoliyat yuritish o‘quv-mashq vazifani muvaffaqiyatli bajarishning omili bo‘lib xizmat qiladi.

Bosh rangtasvirini ishlash albatta bir nechta yordamchi qalamlavhalar ishlab

ko‘rish, joy tanlash, qiyofachi boshining o‘ziga xos shakliy xususiyatlarini o‘rganishdan boshlanadi. Ulardan unumli foydalangan holda matoga boshning qalamtasviri chiziladi. Quyilmaning rangdaga ko‘rinishi qanday ekanligini ham bir-nechta kichik ranglavhalar ishlab ko‘rish orqali tushuniladi. Bunda uning soyayorug‘lik munosabatlari, rang xususiyatlari, yaxlitligi, katta shaklni belgilab tusini ortlik (fon) ga nisbati qandayligi aniqlab olinadi. Ana shu tayyorlab, sinchkovlik bilan mashq qilib ko‘rilgan qalam va rangli lavhalar yordamida asosiy vazifa-akademik ish mufassal bajarilishiga erishiladi.

O‘quv-mashq vazifa quyidagi tartibda olib boriladi:

1. Bosh va kiyim qismlarining yorug‘lik va soyasining fonga nisbatan yaxlitligini katta shaklini topish.
2. SHaklni qismma-qism barcha bo‘laklarini o‘rganib, batafsil aks ettirib chiqish.
3. Umumlashtirish va tasvirni tus-rang hamda tuzilish – «konstruktiv» jihatlarini yaxlit ko‘rinish holatiga olib kelish.

YUqorida keltirib o‘tganimiz uch bosqichdan birinchisi avvalgi amaliy vazifalarni bajarish paytida ancha-muncha o‘zlashtirib olingan bo‘lganligi sababli oson bajariladi. Keyingi ikki bosqich esa endigi bo‘ladigan mashg‘ulotlar natijasida o‘rgatilishi ko‘zda tutilgan. Ikkinci bosqichda asosan boshning barcha muhim hisoblanuvchi qismlari alohida-alohida sinchiklab, hajmi va shaklini chuqur taxlil qilgan holda, iloji boricha batafsil ishlab chiqiladi.

Ammo batafsillik umumiyl katta shaklga va katta rang umumlashmalariga putur etkazmasligi kerak. Har bir kichik unsur rangi hamda shakli ishlanar ekan, uning katta hajmga va umumiyl rang gammasiga nisbati e’tiborda ushlab turilishi zarur shartlardan biridir.

Bosh tasviri mayda qismlarini, ayniqsa, ko‘z, qosh, burun, og‘iz, qulqabilarni aks ettirish jarayoni juda nozik va ko‘p mehnat talab etadigan ishdir. Ularni tasvirlaganda ko‘p narsalarni aql va tajriba bilan hal qilish kerak. Masalan, ba’zi uquvi kam talabalar ko‘z, qosh, burun, og‘izni chiziqlar bilan ifodalab qo‘ya qoladilar, ularning o‘z shakli, hajmi mavjud ekanligiga chuqur e’tibor bermaydilar. Vaholanki, har bir shaklning bo‘rtib soya-yorug‘ga ega bo‘lib, hajmi rangi o‘zgacha ekanligini sezib olish qiyin emas. Buning uchun ularni o‘zaro farqlarini solishtirib aniqlash va o‘xshatib aks ettirish mumkin. Bunda ularning rangidagi

farqlarni ham mustasno qilish kerak emas.

Boshning ortlikka nisbati uning rangi, to‘q yoki ochroq tusga ega ekanligini to‘g‘ri, aniq topib tasvirlash ishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Unda boshning har bir qismi batafsil ishlanishiga qaramay umumiy ko‘rinishi yaxlit qabul qilinishiga erishish taqozo etiladi. SHunday hollar ham uchraydiki, unda talaba tasvir etilayotgan bosh tasviridagi soya-yorug‘liklarni to‘g‘ri ishlamay juda to‘q yoki och qilib qo‘yadi. SHu'lalarni ham ortiqcha bo‘rttirib, yorqinlashtirib yuborib, umumiy rang-tus yaxlitligiga putur etkazadi. Vaholanki aks shu'lalar (reflekslar) soyaniig ichida, uning tarkibida bo‘lishi kerak. Ularni o‘ta bo‘rttirib yuborish soya qismining maydalashib ketishiga sabab bo‘ladi.

Ishni umumlashtirish bosqichida barcha maydalab, batafsil tasvir etilgan qismlar «katta shakl»ga bo‘ysundirilishiga alohida urg‘u berilishi talab qilinadi. Umumlashtirilganda taniqli pedagog-rassom P.CHistyakov ta’biri bilan aytganda «...ko‘zni bor aniqligi bilan ongli qilib tasvirlash kerak, burun va og‘izni bemalolroq ishlash lozim, boshqalari esa umumlashib ko‘rinsa ham bo‘ladi».

Bosh tasvirini ishlaganda uning qanday ko‘rinishiga ta’sir etuvchi kompozitsiya markaziga ham ko‘p narsa bog‘liq. Kompozitsiya yaxshi topilgan va u tus, rang, to‘q-yorug‘ munosabatlari bilan yuzaga chiqarilgan bo‘lsa, mashqvazifa ijobiy natija berishi aniq.

SHuni ham ta’kidlash kerakki, mashqlar faqat auditoriyadagi ishlar bilan cheklanmasligi kerak. Uy ishlarini tez-tez va qunt bilan ado etish talaba bilimi va tajribasini oshirishning muhim omilidir.

Har xil masofada turgan odam gavdasini rangtasvirda ifoda etish

Ilgarigi saxifalarda aytilganlardan ma’lumki, inter’erdagi odam qiyofasini, xoh u yalang‘och bo‘lsin, xoh kiyimda bo‘lsin tasvirlash qiyin jarayon hisoblanadi. Buning uchun ancha tayyorgarlik bosqichlarini avvalgi mashg‘ulotlarda nazariy va amaliy tomondan o‘tilgan zdi. SHu sababdan bu mavzuning ilgari aytib, qayd etib ulgurilmagan qirralariga to‘xtalish joiz.

Ma’lumki, odam xona ichida, inter’erda bo‘lganda u va undan har xil masofada joylashgan narsalar yoki boshqa odamlarning qiyofasi muhit holatiga muvofiq o‘zgarib ko‘rinadi. Bunda tasvirni tasvir ob’ekti uzoq yoki yaqin

masofada joylashganligiga qarab planlarga ajratib aks ettirish yo‘li qulaydir. Bunday ish o‘quv qo‘yilmasida ikki kishidan iborat kompozitsiyaviy vazifani ishslash talab qilinganda amalga oshiriladi.

Murakkab kompozitsiyali, mavzuli voqeaband qo‘yilmalarni tasvirlaganda xona ichidagi yorug‘lik qanday holatda ekanligi muhim rol o‘ynaydi. CHunki chizilayotgan paytda tasvir ob’ektining asosiy qismlari bo‘rttirib ko‘rsatilishi, asosiy narsalar yuzaga chiqarilishi, zarur emaslari esa xiraroq aks ettirilib uzoqlashtirilishi talab qilinadi. SHunday muhit holatlarini ko‘rsatish albatta rang-tuslarni ustalik bilan ishlatishni, tajribani taqazo etadi. Ranglar majmuining o‘zaro uyg‘unlikda tiniq-yorqin yoki xira tuslari so‘niq tasvirlash orqali ham mavzu mohiyatini, mazmunini olib ko‘rsatish mumkin. Bu holda ranglar gammasiga, uning ma’nodorligiga alohida e’tibor qaratiladi va uning «kaliti» topib qo‘llanadi.

Ma’lumki, intererda tashkil qilingan qo‘yilmani ishlaganda uning kompozitsiya markazini topib, o‘quv quyilma ifodaviyligini yanada yaxshi qilib ta’minalash mumkin. Bunda kompozitsiya markaziga urg‘u beruvchi rang va tus munosabatlariga murojaat etiladi. Ular bo‘rttirib tasvirlanadi.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy vositalar, imkoniyatlar juda ko‘p, faqat ularni o‘z o‘rnida ustalik Bilan qo‘llashni bilish kerak. Mahoratni, nazariy va amaliy bilimlarni oshirish uchun ko‘p mashq qilish, izlanish, mehnatdan qochmaslik kerak. SHunda ham o‘quv mashqlar, ham ijodiy ishlar sifati kafolatlanadi. Bugungi talaba ertaga nafaqat yaxshi mutaxassis rassom-pedagog, balki ijodkor – musavvir bo‘lib etishar, bu esa uning intilishlariga, harakatiga bog‘liq. Muhimi, talaba o‘z o‘qituvchisi tomonidan qo‘yilgan har bir vazifani to‘liq va bekamu-ko‘st, vijdonan bajarishi lozim.

Odam gavdasini rangtasvirda ishslash yo‘llari.

Odam yuzi, qo‘li, kiyimini ifoda etish

Odam gavdasi, badanini rangtasvirini ishslash eng murakkab vazifalardan hisoblanadi. CHunki kiyim ichida turadigan, quyoshda qorayib, rang olmagan, odam terisi juda nozik rang tuslarida bo‘ladi. Uni tasvirlash, rang-tusini o‘xshatib ifodalash ancha qiyindir. Odam, gavdasini har xil ko‘rinishlarini turli vaziyatlarda aks ettirish inson tanasi tuzilishi, anatomiyasini, o‘ziga xos shakl-shamoyilini

o‘rganishni, plastik echimini topishni taqozo etadi. SHuning uchun chizilayotgan odam keksami, yoshmi gavdasining konstruktiv tuzilishini avvalo qalamtasvirini chizib, o‘rganilishi kerak. Buning uchun mayda qalam chizmalar, ranglavhalar bajarish, shakl va rang-tus munosabatlarini taxlil qilib o‘rganish lozim. SHundan so‘ng eng maqbul, chiroyli, ko‘zga yaxshi tashlanadigan joydan turib tasvirni matoga tushirish boshlanadi. Unda gavdaning sathda joylashishi kompozitsiya tomonlari puxta o‘ylab chiziladi. Rangda ishlaganda katta shakl, rang uyg‘unligiga ham alohida e’tibor bilan qaralishi, mutanosiblik barcha narsada o‘z aksini topishi kerak. Ular esa gavdaning har bir bo‘lagi, rangi, soya yorug‘ligida namoyon etiladi.

Odam gavdasi uning soya va yopyg‘ joylarini yaxlit qilib ham tus, ham rang jihatidan ishlab chiqishdan boshlanib, hajmni ko‘rsatishga yordam beruvchi unsurlar-yarimsoya va aks shu'lalarni belgilash bilan davom ettiriladi, bunda rang koloriti ham muvofiq tarzda ko‘rsatiladi. Ayniqsa, gavdaning qorin va bel qismlari rang jihatidan juda murakkab, nozik tovlanishli tuslarga egaligi bilan ajralib turadi. Ularni «nyuans»lar yordamida ishlash mumkin. Bunda ham tus, ham rang o‘zgarishlarining salgina farqi ham hisobga olinadi. Odam tanasi agar kiyim bilan tasvirlanayotgan bo‘lsa, kiyim tana qismlari shakliga monand burmalar hosil qilib turishi hisobga olib ishlanadi. Aks holda uning tagidagi badan sezilmaydi va tana plastikasi buzilib ko‘rinadi. Buning uchun avvaldan matolarning qanday burmalanib turishi, natyurmortlar ishlash jarayonlarida ham yaxshi o‘zlashtirib olingani qo‘l keladi.

Ilgarigi ma’ruzalarda biz odam boshi va yuzini qanday ishlash kerakligi ustida to‘xtalgan edik. Gavda tasvirini bajarganda odamning bosh va yuz qismlari bo‘yin va boshqa a’zolar bilan birgalikda, uzviylikda tasvirlanadi. SHu tomoniga alohida e’tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir. CHunki ularni plastik va qurilish jihatidan bog‘lab ifoda etish ancha murakkab bo‘lib, sa’y-harakatlar talab qiladigan mashg‘ulotdir.

Inson gavdasini rangtasvirini qay yo‘sinda, qanday ko‘rinishda ishlamang, unda albatta qo‘l tasvirining o‘rni kattadir. CHunki qo‘l harakatlari, turish holati orqali gavda, inson tanasi vaziyatlari, harakatli holatlari yaqqol bo‘rtib ko‘rinadi. Qo‘l yaxshi aks ettirilsa tasvir e’tiborli va to‘kis ko‘rinish kasb etadi.

Kiyimli portretda qo‘l tasviri hatto insonning «ikkinchchi yuzi» deb ham atalishi

bejiz emas. U orqali inson kayfiyati, uning ichki ruhiy kechinmalari ham bo'rttirib ko'rsatilishi mumkin. SHuning uchun qo'lga ikkinchi portret sifatida qarab, xuddi inson yuzini qanday e'tibor bilan ishlansa uni ham shunday diqqat bilan tasvirlamoq kerak.

YAlang'och gavdadan ranglavha ishlashda qo'yiladigan talablar

Odamning kiyimsiz, yalang'och gavdasi, badanini rangtasvirda aks ettirish ancha qiyin ish. Bu o'quv – akademik vazifani bajarish tasvir ishlashning deyarli barcha yordamchi bosqichlarini o'tilgach amalga oshiriladi. YAlang'och tanani tasvirlashda uning tayyorgarlik bosqichi, ranglavhalar chizish katta ahamiyatga ega. CHunki unda talabaning quyilmadan olgan ilk tasavvuri, taassurotlari mujassam bo'lishi ma'lum. Ranglavhalar ham o'z navbatida qalamtasvir, tezkor chizgilar amalga oshirilgach ishlanadi. Ular ko'pincha kartonlarga ishlanishi mumkin. Bunday mashqlar paytida tasvir etilayotgan odam qiyofasidagi umumiylilik va rangga oid jihatlar, shu bilan birga yaxlitlik masalalari tezkorlikda hal etilib bajariladi. Ma'lumki ranglavha uncha ko'p muddatda bajarilmaydi, eng ko'vida bir, ba'zan esa ikki seans ishlanishi mumkin. Ana shunda odam qiyofasining asosiy rang-tusi, shakl xususiyatlari ishlab olinib ifodali aks ettirilishi talab qilinadi. Bunda qiyofachi tasvir tarxi yaxlit kurinishi, ortiqcha mayda qismlari ham umumlashtirib olinishi kerak. SHunday qilinganda uning fonga nisbatan tutgan o'rni, kompozitsiya mezonlariga, o'lchamlariga amal qilinishi engil ko'chadi.

YAlang'och tanani tasvirlashda juda ko'p ranglar majmuidan foydalanish shart emas. Ranglavha asosiy rang va tus munosabatlarini, shakl ko'rinishidagi yaxlitlikni ifodalashi kifoya. Buning uchun har bir tana a'zosi umumlashtirib, soya-yorug'ligi aniqlanib aks ettiriladi. Agar ranglar xuddi natyurmortdagidek bor rang-barangligi bilan qo'llansa, tasvir bachkana, g'ayritabiyy chiqib qolishi ehtimoli bor.

Ranglavhani tezkorlik va ilk taassurotlar yo'qolmasdan ishlash kerak. Ana shunda u asliga ko'proq ham rang, ham shakl jihatidan monand bo'lib chiqadi. YAlang'och gavdani belgacha, tizzagacha yoki butun tanani ko'rsatib tasvirlash mumkin. Bu o'quv-mashq vazifada qanday talablar qo'yilganiga bog'liq. Ular har xil fon bilan turlicha yorug'lik sharoitida-ko'p martalab ishlanishi kerak. SHunda

malum ijobjiy natijalarga erishiladi.

Guash bo‘yog‘ida ishlashning yo‘llari

Guash bo‘yog‘i akvarel bo‘yog‘ining tamoman aksi bo‘lib, u kabi tiniq, jarangdor tus bermaydi. Ranglari yorug‘likni yuttanligi sababli uning tagidagi qog‘oz ko‘rinib, sezilib turmaydi. Tarkibi esa akvarelniki singari – bo‘yoq kukuni va u ni bog‘lovchi moddalardan iborat. Ammo ular maxsus yog‘och elimi bilan mo‘tadil nisbatlarda aralashtirilgan bo‘ladi. Guash bo‘yog‘ining yana bir muhim jihatni uning oq bo‘yoq bilan aralashtirib ishlatilishidir. SHuning uchun uning ranglari unchalik jarangdorlik kasb etmaydi. Bo‘yoqni ishlatish uchun mo‘yqalamlar ham maxsus tanlanib olinadi va ular juda yumshoq bo‘lmasligi, bir oz dag‘alroq bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Tasvir ishlanadigan sath, ya’ni qog‘oz yoki karton ham silliq bo‘limgani yaxshi. Uning yuzasi iloji boricha elimli qoplama (grunt) bilan ishlov berilgan bo‘lishi zarur. SHunda uning sathiga guash bo‘yog‘ini yaxshi surtish mumkin bo‘ladi. Guash ko‘pincha grafik ishlarni, bezaklarni, plakatlarni ishlashda va qisman rangtasvirlarni bajarishda foydalaniladigan, suv qo‘shib ishlatiladigan, tez quriydigan bo‘yoqdir. U bilan tasvirlar bajarishning murakkabligi shundaki, bo‘yoq surtilgan paytida to‘q, qurigandan keyin esa ochlashib ko‘rinishidir. SHu jihatini hisobga olib turilmasa ranglar orasidagi muvofiqlikni ushlab turish ancha qiyin kechadi. Buning uchun odatda har bir surtiladigan asosiy ranglar alohida-alohida maxsus idishchalarda tayyorlanib olinib, so‘ng unga bir oz boshqa qo‘srimchalar aralashtirib tasvir ishlanadi. Ranglarni ishlatishda, uning to‘q-ochligi, rang tuslarining qanday topilganini doimo tekshirib, bilib turish uchun bir bo‘lak qog‘ozga tayyorlangan aralashmani surtib aniqlab, so‘ng qo‘llansa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Guash bo‘yog‘ida juda ko‘p o‘tmish rassomlari ham asarlar yaratganliklari ma’lum. Ularning ajoyib-ajoyib natyurmort, manzara, teatr bezaklari, portret, plakatlari jahon tasviriy san’ati xazinasidan o‘rin olgan. Ammo, shunisi borki, bu nozik, saqlanishi ancha qiyin bo‘lgan ishlarning ayrimlari, ayniqsa quyuq qilib ishlanganlarining bo‘yoqlari o‘chib, to‘kilib ta’mir talab bo‘lib qolganligi sir emas. Guash bo‘yog‘ida tasvirlarni bajarganda iloji boricha har bir rang tusi uchun alohida-alohida mo‘yqalam tutgan ma’qul. SHunda ranglarni tiniq va toza, jozibali

chiqishig‘a erishiladi. Mo‘yqalamlarning turli o‘lchamlardagisi, va yumaloq hamda. yapaloq ko‘rinishdagaridan foydalaniladi. Ayniqsa, yapaloq mo‘yqalam bezak ishlarida hamda tezkor ranglavhalarni ishlashda juda qulaydir. Guash bo‘yog‘ida ranglavha va ayniqsa portretlar hamda odam tana qismlarini tasvirlash, nozik rang tovlanishlarini berish qiyin ishdir. Buning uchun ancha muncha mahorat, bilim, tajriba kerak bo‘ladi. Tasvir ishlashning yo‘l-yo‘rig‘i, usullarini puxta zgallash esa ko‘p amaliy mashg‘ulotlarni talab etadigan jarayondir.

Katta-katta monumental asarlarning eskizlari hamda kompozitsiya loyihalarini, bayram munosabati bilan tayyorlanadigan suratlarni ham guashda bajarish qulaydir. U bilan keng qamrovli, mahobatli tasvirlar tez ishlanadi.

Rangtasvir ustalarining asarlarini kuzatar ekanmiz, ularning har biri texnologiyasi hamda uslubi jihatidan naqadar rang-barang ekanligini ko‘ramiz va rassomlar mahoratiga tan beramiz. CHunki ijodkorlar bo‘yoqning tasvir imkoniyatlarini ustalik bilan qo‘llaganlar. Asarlarning biri quyuq bo‘yoq qatlamidan foydalanib ishlangan bo‘lsa, boshqasi esa juda nozik, yupqa qatlamda bajarilgan. SHunday asarlar xam borki, ular murakkab aralash texnikada bajarilgan. YA’ni ham akvarel, ham guash texnologiyasi ustalik bilan qo‘llangan. Bunday mahoratli ishlangan asarlar qatoriga rus rassomlari V.Serov, K.YUon, V. Kustodievlarning ijod namunalarini qo‘shishimiz mumkin. SHunisi ham qiziqarlik, ayrim rassomlar akvarel bo‘yog‘ida yaratgan asarlarida guashning faqat oqini ishlatganlar va bu yaxshi samara bergenligi ko‘rinib turadi. Bunday asarlarga S.Gerasimov ijodiga mansub ishlarni misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin.

Guash, bo‘yog‘ining keyingi paytda yangi kashf etilgan turi ham mavjud bo‘lib, uning nomi «fluorescentli guash» deb ataladi. Uning ijobiy tomoni sun’iy nur tushirilganda yorqinlik kasb etib, «yal-yal» yonib ko‘rinishidir. CHunki uning ximiyaviy asoslari ultrabinafsha, binafsha, ko‘k, yashil nurlardan g‘ayrioddiy yorqin va tabiatdagidan ikki-uch marta kuchli rangda tovlanib ko‘rinadi. SHu sababdan bunday bo‘yoq turi teatr bezakchiligidagi keng qo‘llanmoqda. Uning ta’sirchan yarqirab ko‘rinishi uchun odatda kvarts lampalari nuridan ham foydalinish rasm bo‘lmoqda.

O‘quv-mashq ishlarni bajarishda, ayniqsa natyurmortlarni ishlashda guash bo‘yog‘idan foydalanshp juda xam qo‘l keladi. Uni moybo‘yoq tasvirlar ishlashdan avval o‘rganilsa maqsadga muvofiq keladi. SHuningdek turli kompozitsiyalarining

eskizlarini, o‘quv-mashq namunalarini guash texnikasida bajarish qulaydir. U bilan katta-katta sathlarni yaxlit qilib bo‘yash, tez ishlash mumkin.

Moybo‘yoq rangtasvir texnikasi

Moybo‘yokda tasvirlarni ishlash rassom uchun xam, endi o‘rganayotgan talaba uchun ham juda qiziqarli mashg‘ulotdir. Ammo bu mashg‘ulotning jiddiy qiyinchiliklari ham mavjud bo‘lib, u moybo‘yoq rangtasvir texnologiyasi bilan ham bog‘liq. CHunki moybo‘yoq bilan ishlash ma’lum tayyorgarlikni talab etadi. Ularga bo‘yoqlarni tanlash, ish uchun sath (mato) ni tortib tayyorlash, uni qoplama (grunt) bilan yopish, mo‘yqalamlarni tanlash, eritgichlarni tanlab olish kabi zarur tadbirlarni kiritish mumkin. Moybo‘yoq tasvirlar ishlashni o‘rganish natyurmortlarni chizib mashq qilish orqali o‘zlashtirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Moybo‘yoqli natyurmort rangtasvirini ishlash jarayonining ayrim tomonlari akvarel texnikasiga o‘xshash. CHunki bunda xam avval qalamtasvir chizib olinadi. Agar suvbo‘yoqda ishlash uchun tasvir mukammalroq, mayda detallari bilan batafsil chizib olinsa, moybo‘yoqda ishlash uchun esa chizmatasvir umumlashtirilib eng asosiy narsalar aks ettiriladi. Buning sababi, moybo‘yoqda ishlash jarayonida batafsillik mo‘yqalamda ham bajarilishi mumkinligidandir. Moybo‘yoqda biror rangni ochlashtirish uchun unga oq rang kerakli darajada qo‘shiladi. SHunisi ham borki, oq rang qo‘shilgach, bo‘yoqning yorqinligi ma’lum darajada kamayadi. Buni o‘quv mashqlarini bajarish jarayonida albatta hisobga olish lozim. Akvarel texnikasi kabi jihatlardan biri ish jarayonini asosiy uzoq muddatli vazifani boshlashdan avval ranglavha, chizmalavhalar ishlab olinishidir. SHunda bo‘lajak rangtasvirning asosiy xususiyatlarini tajriba qilib ko‘rib o‘rganish, asosiy ishda uni qo‘llash mumkin bo‘ladi.

Moybo‘yoq tasvirlarini ishlash uchun maxsus ashylardan foydalilanadi. Ular romga tortib tayyorlab, qoplama surtib olingan (gruntlangan) mato, moybo‘yoqlarning kerakli xillari, bo‘yoqtaxta (politra), mo‘yqalamlarning turlichalikdagi xillari, «mastixin» va eritgichlardan iboratdir.

Romga tortilgan mato qanday tayyorlanganligi tasvir sifatini belgilaydigan omillardan biridir, desak xato bo‘lmaydi. Uning qoplamasini (gruntini) ikki xil tarzda tayyorlanishi mumkin. Biri moyli qoplama bo‘lib, u quyidagichadir: 5 foizli elim

(jelatin, baliq yoki duradgorlik elimi) aralashmasi shunga teng hajmdagi bo‘rga qo‘shiladi. U bilan mato sathi qoplanadi. Bir marta surtilgandan so‘ng qoplama bo‘yoq qatlami tayyorlab olinadi. U quyidagi tarkibda, ya’ni – maxsus oqartirtirilgan (oftobda toblangan) rangtasvir yog‘i, quruq oq bo‘yoq kukunidan qo‘shib tayyorlangan aralashma bo‘ladi. YOg‘ va kukunning nisbati shunday bo‘lishi kerakki u tayyor, maxsus idishga solib chiqariladigan moybo‘yoqlardan suyuq bo‘lmisin. SHunda uni bemalol mato sathiga «mastixin» bilan tekis qilib surtib chiqish mumkin bo‘ladi. 1-2 hafta quritilgach g‘adir-budir erlari qumqog‘oz bilan yaxshilab tekislanadi va skipidar aralashtirilgan moyli qoplama yassi, katta mo‘yqalam («fleys») bilan tekis qilib bo‘yab chiqiladi. Bunday usulda tayerlanadigan mato 2-3 oy mobaynida quritiladi. U saqlanadigan joy iliq va quruq bo‘lishi shart.

«Elimli qoplama» deb yuritiladigan qoplamaning ikkinchi xili quyidagicha tayyorlanadi: 1 l. suvda 50-60 gr. jelatin eritiladi va unta 15 gr. glitserin qo‘shiladi. U matoga 1-2 marta surtiladi. Birinchi marta surtilgani qurigach qumqog‘oz bilan mato usti tekislanib olinadi, so‘ng ikkinchisi surtiladi. SHundan so‘ng elim aralashmasi bo‘r va oq bo‘yoq kukuni bilan teng nisbatlarda 40 S darajali issiqda eritiladi. Agar uning tarkibi quyuq bo‘lib qolgudek bo‘lsa, o‘sha elim aralashmasidan qo‘shiladi. Bunday qoplama 2-3 marta qavatma-qavat qilib surtiladi. Ular oralig‘ida qurishi uchun ma’lum vaqt bo‘lishi shart.

Qoplamalar yana ma’lum rang tusida ham tayyorlanishi mumkin. Ular ko‘proq ijodiy ishlarni bajarishda va kompozitsiya yaratish jarayonlarida qo‘l keladi. Moybo‘yoqda o‘quv-mashqlarni bajarishda rang xillaridan ham unumli foydalanish talab etiladi. Vazifalarni ishlaganda juda ko‘p rang xillaridan bilibilmay ishlatish yaxshi samara bermaydi.


Tabiatda ettita asosiy rang (bo‘yoq) borligi ma’lum. Ular qizil, noranji, sariq, yashil, havo rang, ko‘k, binafsha ranglardir. Bo‘yoq aralashtiriladigan taxtada (politrada) bo‘lishi juda zarur rang xillari esa qizil, sariq, ko‘k bo‘yoqdir. CHunki ularni boshqa qolgan asosiy rang-tuslar vositasida hosil qilib bo‘lmaydi. Bularning aralashmasidan juda ko‘p, deyarli barcha ranglarni chiqarish, hosil qilish mumkin. Ulardan hatto qora rang tusini ham topish mumkinligi sir emas. Faqat qaysi rangni bir-biriga qancha miqdorda aralashtirishni bilish kifoya. Buning uchun esa albatta tajriba va uquv bo‘lishi kerak.

SHuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, tabiatda absolyut oq va absolyut qora ranglar mavjud emas. Ularning barchasi qandaydir bir rang tovlanishida bo'ladi. Masalan, qoraning jigarrangta, ko'kka, yashilga moyil ekanligini ko'rishimiz mumkin. Oq rangning turli nozik tuslarga moyilligi ham tabiiy. Bunday rang va tuslarning hamda ularning to'q-ochliklarini topib tasvirlash uchun moybo'yokda ishlash texnikasi juda qulaydir. SHu imkoniyatlarning kengligi bilan u boshqa bo'yoq turlaridan ajralib turadi.

Moybo'yoq texnikasida rangtasvirlar bajarganda mo'yqalamlarning qanday turlari va o'lchamlardagilarini ishlatish ham muhimdir. Ularni tanlay bilish ko'p foyda keltiradi. Ma'lumki natyurmortlarni, katta ishlarni bajarishda yapaloq va dag'al mo'yqalamlarni qo'llash ish sifatini, ta'sirchanligini ta'minlaydi Moybo'yoqlarga suyultiruvchi, erituvchi vositalar qo'shib ishlatiladi. Ular moyli va moyi kamaytirilgan bo'lishi mumkin. Moylirog'i bo'yoqni sekin qurishi uchun yaxshi vosita bo'lib, u bilan foydalanilgan paytda rangtasvir sekin quriydi. SHu sababli uzoq muddatda bajariladigan tasvirlarni ishlashda qulaylik yaratadi. Bunday eritgichlarga ba'zan lak ham aralashtirib ishlatilishi mumkin, shunday qilinganda ishning bo'yoq qatlami tezroq quriydi va bo'yoqning moyi matoga shimilib ketishining oldi olinadi.

SHuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, moybo'yoq texnikasida rang qoriladigan maxsus taxtacha (politra) ning yuzasida bo'yoqlarni qanday joylashtirish masalasi ham muhim. Unda bo'yoqlar issiq-sovuq ranglarga ajratib, shu bilan birga to'q-ochligiga qarab ajratib joylashtirilishi mumkin. Oq bo'yoq odatda o'rtada yoki ranglar qatorining boshlanishida bo'ladi. Agar har safar bir xil joylashtirilsa, rassom shunga o'rganadi va kerakli bo'yoqni darrov topib ishlatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Moybo'yoqda tasvirlar ishlashning juda ko'p o'rganilishi kerak bo'lgan tomonlari bor. Ularning barchasi ko'p mashq qilish orqali o'rganib olish imkonini beradi. Tajriba nazariy va amaliy tomondan muntazam mashq qilish natijasida oshadi. Bunda maxsus adabiyotlarni mutolaa qilish ham yaxshi yordam beruvchi vositadir.





A. SHilov. "Ayolimning portreti" 1976 y.



B. Tojiev. “Baxor lolalari”




R.Axmedov. "Nigora portreti" 1976 y.



N. Abdusalomxo'jaev. "Xovli"



N. Abdusalomxo'jaev. "Xumson qishlog'i"



R.Axmedov. "Rassom E. Kalontarov portreti "



B.Tojiev. “Atirgullar” natyurmort

III BOB. Kompozitsiya. Kompozitsiya o‘quv predmeti sifatida

Kompozitsiya haqidagi tushunchalar juda keng qamrovli va ma’nolarga ega bo‘lgan tushunchadir. U barcha ijodiy jarayonlarga taalluqli bo‘lib, deyarli hamma san’at turlarining asosini tashkil etadi. Kompozitsiya unsurlari musiqada ham, teatrda ham fotografiyada ham, adabiyotda ham, haykaltaroshlik va albatta boshqa tasviriy san’at bilan aloqador sohalarda mavjuddir.

Kompozitsiya unsurlari bo‘lgan – mutanosiblik, muvozanat, yaxlitlik singari sifatlarni olib karasak, ular har bir tabiat vogeliklarida mavjud ekanligini sezib olishimiz qiyin emas. Masalan, biz oddiy daraxtni ko‘rib ham undagi go‘zallikdan hayratlanishimiz tabiiy. CHunki har bir narsa ma’lum tamoyil va qonuniyatlar ichida mavjuddir. Ularning shakl o‘lchamlari, tuzilishi o‘zaro mutanosib ko‘rinishlar kasb etishi unda kompozitsion mutanosiblik, shakl tuzilishidagi muvozanatning mavjudligidan darak beradi. Bunday misolni tabiatdagi barcha jismlarga tadbiqan keltirib o‘tsak, ko‘p narsani anglab olishimiz engil kechadi. Buning ma’nosи shundan iboratki, demak kompozitsiya qanday shakl va mazmunda bo‘lmisin, avvalambor u tafakkur mahsulidir. Buni badiiy ijodning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tushunishimiz ma’qul. CHunki tabiatdagi tayyor shakllar bilan badiiy ijod mahsuli bo‘lgan shakllarni o‘zaro farqlashimiz darkor.

Ma’lumki kompozitsiya tushunchasining barcha san’at turlariga aloqador umumiy jihatlari va shuningdek, har bir soxaga oid o‘ziga xos jihatlari bor. Ularni atroflicha o‘rganish, taxlil qilish talabalar ijodiy faoliyatining o‘sishida muhim ahamiyat kasb etadi. Kompozitsiyani uning qonuniyatlarini o‘rganish nazariya va amaliyotga bo‘linishi tabiiy bo‘lib, uni yaxshi o‘zlashtirish uchun nafaqat yillar, balki asrlar davomida bu sohada yaratilgan nazariyalar va tajribalarning tub mohiyatini anglab, o‘qib o‘rganish kerak. Amaliyotda qo‘llay bilish ham muhimdir. SHuni ham unutmaslik kerakki, maktab va o‘quv yurtlarida dars beruvchi mutaxassis, rassom-pedagog kompozitsiyaga oid bilimlar bilan to‘la qurollangan bo‘lishi kerak. CHunki bolalarga rasm chizish sirlarini o‘rgatish jarayonining ko‘p qismi mavzuli rasmlar chizish amaliyoti bilan uzviy holda olib boriladi.

Ma’lumki, «Kompozitsiya» so‘zi orqali rassomlar badiiy tasviriy san’at

asarining barcha qismlarining o‘zaro munosabatlarining qonuniyatini tushunadilar. Ayrim shunday bog‘liqliklar albatta ko‘z orqali ko‘rib anglashiladi (son jihatlari), boshqalari esa (sifat jihatlari) idroklash, fikrlash orqali qabul qilinadi.

Qalamtasvir yoki ranggasvir asarining kompozitsiyasi «struktura» siga aloqador tushunchani mohiyatini qisqacha tarzda ko‘rib chiqaylik. Buning uchun kompozitsyaning son bog‘liqligi munosabatlarini birma-bir keltirib o‘taylik: bu chizilayotgan narsaning absolyut o‘lchamining uning asliga nisbati, chizilayotgan o‘lcham tomonlarining o‘zaro nisbatlari, predmetlarning masshtabi, ular orasidagi masofalar, narsalarning qanday burilib turganligi (to‘g‘ridan ko‘ringani – «fas», yondan - «profil», yarim burilgan holati, «kombinatsiyalashgan» – murakkab va h.k.), ufq sathi darajasi, yorug‘lik manbaining holati, soya-yorug‘ning taqsimlanishi, tusi, soya va yorug‘ning nisbiy muvozanati, shuningdek asosiy rang dog‘lari muvozanati, tasvirlanayotgan ob’ektlarning bo‘laklarining o‘zaro joylashishi, qiyofalar va fonga nisbatan «kontrast»lar farqi (rang, soya-yorug‘, o‘lcham), kompozitsiya unsurlarini fazodagi ko‘rinishini tashkil qilish (metr, ritm) va boshqalar.

YUqorida keltirib o‘tilganlarning barchasi predmetlarning sondagi belgilaridir. Ularni o‘lchash va sanab ko‘rsatish mumkin. Kompozitsiyada qancha narsa ishtirok etayotganini aniqlash imkoniyati aniq. SHunday qilib ko‘rish orqali qabul qilish mumkin bo‘lgan belgilarni kompozitsyaning vositalari deb atashimiz mumkin. Bu asosda esa rassom ularning bevosita yordamida o‘z fikrini ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Xuddi musiqa yaratayotgan kompozitor notalardan foydalangani singari rassom ham yuqorida sanab o‘tilgan vositalardan foydalanib, o‘z asari g‘oyasini yuzaga chiqaradi, tasvirlarda ko‘rsatib beradi. Sondagi kompozitsiya sifatini ta’minlovchi, fikrni to‘liq ifoda etishga xizmat qiluvchi belgilarni jamlovchi holat mazmuni kompozitsiya tamoyillari deyiladi. Ular: yaxlitlik, mutanosiblik, o‘lchamlar muvofikligi, muvozanat, birlik va uzviylikdir. Bular orqali rassom ishning sifat darajasini ta’minlaydi. Natijada asar kompozitsiyasi yuzaki emas, balki chuqur ma’no aasb etadi, tafakkurlash natijasida tushuniladi. Rassom kompozitsiya tamoyillarini ustalik bilan qo‘llab, har tomonlama yutuqqa erishadi, kompozitsiya bekamu-ko‘st bo‘ladi.

Ma’lumki, kompozitsiya tamoyillari uch xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Ular quyidagicha: frontal, hajm-fazoviy va chuqurlik-fazoviy kabilardan

iborat. Bulardan birinchisining belgisi – kompozitsiyaning ikkita koordinat orqali (vertikal va gorizontal) rivojlanishini bildiradi. Unda uchinchi koordinat chiqurlik qolgan ikkisiga bo‘ysungan holatda ishtirok etadi. Bunday kompozitsiya amaliy-bezak kompozitsiyalarida ko‘p qo‘llaniladi. Hajm-fazoviy kompozitsiyalarida, esa shakllar uch o‘lchamli holatlarda yaratiladi. Ular har tomondan turib, aylanib ko‘rishga mo‘ljallangan bo‘lib, haykaltaroshlikda qo‘llanadi. CHuqurlik fazoviy kompozitsiya predmetlarni kartina tekisligida tasvir etishda qo‘llanadi va dastgohli ranggasvirda foydalaniladi.

Tarixdan ma’lumki, o‘tmishning ulug‘ rassomlari kompozitsiya masalalariga juda jiddiy yondashganlar va o‘z asarlarini yaratishda umumqoida bo‘lib qolgan tamoyillarga amal qilganlar. Kompozitsiyaning «vertikal», «gorizontal», «doiraviy», «kvadrat», «burchak» va boshqa ko‘rinishlarini qo‘llab yuksak natijalarga, go‘zal ifodaviylikka erishganlar, «Oltin kesim» kompozitsiya usulidai unumli foydalanish har sohada qo‘l kelgani ham ma’lum.

Kompozitsiya tuzishga mohir bo‘lgan va uni o‘z asarlarida mukammal darajaga olib kelgan mo‘yqalam ustalari ko‘p, ularga misol qilib quyidagilarni qisman atab o‘tsak o‘rinli bo‘ladi. Bunday o‘tmish tasviriy san’ati ustalari: Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, ADyurer, J.D.Engr, P.Rubins, Rafael, Tintoretto, A.Ivanov, K.Bryullov, I.E.Repin, YA.Mateyko va boshqalardir.

O‘zbek rassomlaridan tasviriy san’atning turli tur va janrlarida ijod qilgan va hozirgi paytda ajoyib asarlar yaratib kelayotgan musavvirlardan ayrimlarini sanab o‘tishimiz mumkin. O‘.Tansiqboev, I.Ikromov, Z.Inog‘omov, CH.Axmarov, X.Husniddinxo‘jaev, A.Abdullaev, R.Ahmedov, R.CHoriev, I.Jabborov, A.Boymatov, J.Umarbekov, SH.Abdurashidov, A.Mirzaev, S.Abdullaev, A.Ikromjonov, B.Jalolov, A.Nuritdinov, O.Qozoqov va boshqa ko‘plab ijodkorlarni bemalol kompozitsiya ustalari deb atashimiz, ularning asarlarini ijobiy jihatlarini tahlil qilib, ibrat olishimiz mumkin, bu albatta o‘quv-mashqlarni bajarishda nazariy asos vazifasini o‘taydi.

Kompozitsiyaning asosiy qonuniyatları

SHu sababli kompozitsiya tuzish va uni o‘rganish tamoyillari puxta

o'rganilishi zarur shartlardan hisyublanadi. Haqqoniy tasvirlar ishlashga jazm etgan realist-rassomlar doimo tabiat hodisalarini o'ziga o'xshatib tasvirlash yo'lidan boradilar, uni obrazli tarzda aks ettiradilar. Bu tasvirlar ko'r-ko'rona ko'chirib olinar ekan degan tushunchani bermasligi kerak. CHunki har bir hodisa yoki predmet tasvirlanar ekan u rassom salohiyati natijasida o'z obrazli umumlashma yaxlit ko'rinishini topadi. Bu albatta kompozitsiyaning umumiy va xususiy komponentlari asosida yuzaga chiqariladi. Rassom ma'lum tanlab olingan mavzuni, voqelikni tasvir etar ekan, unga bo'lgan o'z shaxsiy munosabatini bildiradi va shuni tasvirlarda namoyon etishga intiladi. Natijada asarda obrazlilik yaqqol ko'zga tashlanadi. YAxlit mazmun mohiyat kasb etadi.

Ma'lumki, kompozitsiyaning qonuniyatlari orasida yaxlitlik qonuni muxim o'rin tutadi, yaxlitlik yordamida mavzu mohiyati ochib beriladi. Asarning muhim bo'lgan mazmuniga tamoshabin e'tibori jalb etiladi. Kompozitsiyadagi yaxlitlikni ta'minlashning turli yo'llari va vositalari mavjud. Ular tasvir lo'ndaligi, ortiqcha narsalarning cheklanganligi, ranglarning va tuslarning o'zaro muvofiqligi, uyg'unligi orqali yuzaga chiqadi. Mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda faqat zarur narsalarga tanlab olib tasvir etiladi. Ikkinci darajali narsalar asosiy tasvir unsurlariga bo'ysundiriladi. SHu sababdan xam yaxlitlikka alohida e'tibor berilishi kerak. Kompozitsiyadagi barcha unsurlar faqat tasvir jihatlari bilan emas, balki g'oyaviy jihatdan ham mazmun mohiyatiga moslanib aks ettiriladi. Asosiy narsa kompozitsiya markazining qay darajada mos va muvofiq topilganiga qarab alohida ajralib turishi ma'lum. SHu sababdan kompozitsiya markazini ham tasvir orqali, ham rang-tuslar orqali yuzaga chiqarish muhimdir. Bu tamoyilning qo'llanishi barcha tasviri san'at tur va janrlaridagi yaratiladigan asarlarga taalluqlidir.

Kontrastlilik, ya'ni tasvir bo'laklarining o'zaro va fonga nisbatan qaramaqarshi mohiyat kasb etib, ko'rinishi orqali yuzaga chiqadigan «vizual» bo'rtiqlik, ta'sirchanlik ham kompozitsiyada asqotadigan eng zarur qonuniyatlar safida turadi. U hajmdorlik va yassilik, tarx va siluet, yorug' va qorong'u, iliq va sovuq, rangdor va tussiz o'lchamlar kontrasti orqali namoyon bo'ladi. Kompozitsiya mazmun mohiyatini ochib berishda xizmat qiladi.

Masalan, hajmdor narsa tasvirini yassi sathli tasvir ko'rinishi orqali, ya'ni yonma-yon qo'yib shakl bo'rtiqligini yanada orttirib ko'rsatish imkoniyati bor. O'lchamlardagi kontrastlilik orqali katta narsa va kichik o'lchamdagagi narsa

orasidagi farqlar orqali masshtab ko‘lamiga erishish mumkin. Rang-tuslar orasidagi kontrastlilik ham yuqoridagi misollar kabi holatlarda yaxshi namoyon bo‘ladi va kompozitsiya mazmun mohiyatini olib berishning zo‘r vositasi bo‘ladi. Sovuq va issiq ranglar farqi orqali ham tuyg‘ularga ta’sir etuvchi holatlarni yuzaga chiqarish va kompozitsiya g‘oyasini yanada bo‘rttirishga erishish imkoniyati bor.

Ma’lumki, shakllararo kontrastlar ham qiziqarli natijalar beradi, ya’ni odatdagidan ham kichikroq o‘lcham masshtabida olib tasvir etilgan kompozitsyaning unsuri yonidagi ahamiyatli narsa yanada bo‘rtib mahobatlilik kasb etishi ma’lum haqiqatdir. Kompozitsiyadagi ranglar kontrastida yana shular ham namoyon bo‘ladiki, unda sovuq rangli fonda uissiq, issiq rangli fonda sovuq rangli narsalar bo‘rtib ko‘rinadi va shu asosida ta’sirchanlik kasb etadi.

Badiiy ijodning mohiyatiga nazar solar ekanmiz, uning muvaffaqiyatiga ko‘p narsa kerakligini bilib olamiz. Bular: badiiy ijod kuchlari, ya’ni – mehnat, iroda, ilhomlanish. Ijodning samara beruvchi kuchlari, ya’ni – fikrlash, sezgi (intuitsiya), taxayyul va tasavvur va boshqalardir. Badiiy ijod komponentlariga esa - bilim, dunyoqarash, badiiy uslub, badiiy nafosat didi va mahorat kabilar mansub ekanligini alohida ta’kidlab o‘tmoq kerak. Qisqacha xulosalab aytadigan bo‘lsak, tasviriy san’at, xususan kompozitsiya masalasida muhim-nomuxim narsalar bo‘lmaydi, ularning barchasi zarur hal etiladigan vazifalardir. Qunt va chidam bilan ish olib borilsa barcha narsaga, yuksak natijalarga erishish mumkin.

Inter’er, fazo, atrof – muhit va vaqt kompozitsyaning faktorlari sifatida

Ma’lumki tasviriy san’atni o‘rgatish tajribasi ayniqsa kompozitsiya masalalarini hal etish jarayonida interer, fazo, atrof-muhit va vaqt faktorlarini to‘g‘ri olib berish uning ifodaviyligini ta’minlashda katta ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Ma’lumki interer ko‘pchilik kompozitsiyalarning muhim qismi sifatida foydalilanadi. U ayniqsa natyurmortlarni ishlashda ko‘p qo‘llanadi. Keng qamrovli mazmun mohiyatga ega bo‘lgan natyurmort kompozitsiya asarlarida va shuningdek o‘quv mashqlarida ham xona ichi tasvirlanadi. Unda esa albatta kompozitsyaning barcha qonun-qoidalari va amallariga rioya qilinishi taqozo etiladi. Bunda uning chiziqli perspektiva qurilishi, fazoviy holatlari, atrof-muqit ko‘rinishi realistik

tarzda metodik izchilllikda bilimdonlik bilan aks ettirilishi lozim. Agar kompozitsiyaning biror-bir unsuri e'tiborsiz qoldirilsa, unda umumtasviriy jihatlari bo'sh, ta'sirsiz chiqib qolishi mumkin. Masalan, natyurmort kompozitsiyalarida atrof-muhit, fazo holatlari muhim hisoblanib, ularni ifodali tasvirlash orqali mavzuni belgilovchi zamonaviylik hamda vaqtini, asar ishlangan paytdagi fasl xususiyatlariga dovur aniq, tiniq ko'rsatib berish mumkin. Mazmunning chuqur va qiziqarli chiqishi natyurmort qo'yilib tasvir etilayotgan xona ichi, ya'ni intererning qanday yoritilganligi, undagi buyumlarning qanday joylashganligiga ham bog'likdir. CHunki ular orqali kompozitsiya g'oyasini yanada teranrok, ochib byorish imkoniyati tug'iladi. Ana o'sha har bir o'zicha muhim bo'lgan narsalar orqali vaqt mezonlarini, davr xususiyatlarini ham to'liq badiiy tarzda ifodalash mumkin. Odam qiyofasini intererda aks ettiradigan kompozitsiyalarda ham vaqt, fazoviy holatlar, atrof-muhit tasviri orqali ko'rsatib beriladi. CHunki ular kompozitsiyadagi rangdorlik, tus-rang munosabatlarini, ta'sirchanlik va mazmuchchni belgilovchi komponentlar sifatida yuzaga chiqadi. Ma'lumki o'quv mashqlarida, kompozitsiya chizish jarayonlarida bu muhim omillar aslo unutilmasligi lozim.

CHunki ular kompozitsiyaning o'lchamini, tomonlarining rang va to'q-ochlik, demakki tus munosabatlarini, yaxlitlik va muvozanatlarini belgilab, muallif o'z oldiga qo'ygan g'oya tasvirini yuzaga chiqarishda yordam beradi. Mazmunning tushunarli, lo'nda, qiziqarli chiqishida xizmat qiladi. Xona ichini kompozitsiyaning bir komponenti sifatida tasvirlash ham oson emas. U ko'pincha tasvir etilayotgan voqelikning yordamchi bir foni vazifasini o'tasada, unga muhim bo'lak sifatida yondoshilishi kerak. Masalan, intererni chiziqli perspektiva holati to'g'ri topilmas ekan kompozitsiyaning fazoviy o'lchamlari va ifodaviyligining haqqoniy aks etishi mumkin bo'lmay qoladi. O'z navbatida atrof-muhit ham kompozitsiyaning mazmunini belgilovchi unsurlardan biri hisoblanadi.

YUqorida keltirib o'tilgan ma'lum otlardan shu narsa ayon bo'ladiki, demak - interer, fazo, atrof-muhit va vaqt kompozitsiyasining mazmunli chiqishida muhim rol o'ynovchi, o'zaro bir-biri bilan bog'lik, holda tasvirlanadigan zarur kompozitsiyaning faktorlari ekan. SHu sababdan ularning tasviriga katta e'tibor bilan yondoshish zarur. Intererda aks etgiriladigan har turli kompozitsiyalarni bajarishdan avval albatta ko'plab yordamchi eskizlar, musavvada – lavha suratlar

ishlanishi kerak. Ulardan foydalangan holda kompozitsiyada xonaning qanday qismi tasvir etilishi topiladi. Perspektiva ko‘rinishing qurilishi tahlil etib belgilab olinadi. Bunda albatta rang, fazoviylik holatlari tus soya-yorug‘lik munosabatlari orqali ifodalanadi.

Plakat san’ati haqida

Ma’lumki grafika san’atining katta tarmog‘i hisoblanuvchi plakat janri o‘zining qiziqarliligi bilan alohida ajralib turadi. U ommaviy targ‘ibot va tashviqot ishlarida juda qo‘l keladigan, keng ma’lumotlarni odamlarga tez, rangdor qilib tasviriy vositalar orqali etkazish vositasidir. Plakat san’atining murakkablik tomonlari ham bor. U mavzuni yoritib berishda tasviriy vositalarni lo‘nda, tushunarli, aniq qilib qo‘llashni taqozo etadi. Bunda albatta kompozitsiya echimi pxta, har tomonlama o‘ylab hal etilgan bo‘lishi zarur. Plakatning qulayligi shundaki, uni ishslash jarayonida boshqa tasviriy san’at turlaridagidek ko‘p vaqt talab etilmaydi, ba’zan uni juda tezlik bilan ishslashga to‘g‘ri keladi. Bundan plakat ishslash oson ekanda, degan tushuncha kelib chiqmasligi kerak, albatta. Bu san’atning murakkablik tomonlarini u bilan jiddiy shug‘ullanib ko‘rgan odam yaxshi biladi. Plakat ishslash uchun avvalambor mavzu aniq qilib o‘ylab olingan bo‘lishi kerak. Buning uchun esa fikrlash, kompozitsiya echimini topish uchun salohiyat va bilim kerakligi sir emas.

Plakat mavzulari, shuningdek nima maqsadda yaratilganligi bilan bir necha turlarga ajratiladi. Ular: badiiy plakatlar, tijorat-reklama plakatlari, chorlov-afisha plakatlari, siyosiy-ijtimoiy plakatlar, foto-plakatlar, yozuvli ko‘rgazma quroq sifatida qo‘llanadigan plakatlar va shuningdek yana bir qancha xillarga bo‘linadi. Ularning nima maqsadda ishlanganligi mavzusidanoq antlashilib turishi kerakligi plakat san’atining bosh, zarur talabi desak yangilishmaymiz.

O‘z mavzusiga ko‘ra plakatlar ekologiya, tibbiyat, hajviy-satirik, chaqiriq, targ‘ibot-tashviqot yo‘nalishlarida ishlanishi mumkin. Plakatda mavzuning dolzarbliji darajasi ham juda muhim shartlardan hisoblanadi. CHunki hammani bezovta qilib turgan mavzulardagi san’at asari darhol ilg‘ab olinadi. SHunday plakat namunalari o‘z o‘rnini, vazifasini topib odamlarga yaxshi xizmat qilishi ma’lum.

Plakat ham barcha san'at turlaridagidek kompozitsiyaning umum joriy etilgan qonun-qoidalari asosida izlanishlar bilan yaratiladi. Plakatda ham kompozitsiya markazi, rang echimi, chiziqlar va asar barcha tomonlarining o'zaro munosabatlari, muvozanati muxim komponentlardandir. Yana shuni ham aytish kerakki, plakat ba'zan umuman yozuvsiz faqat tasvirdan iborat bo'lishi, shunda ham yaxshi tugal mazmun kasb etishi, tushunarli ifoda topgan bo'lishi mumkin. Bunda albatta uning kompozitsiyaviy echimi sifati, muallifning topqirligi va qobiliyati, bilim darajasi rol o'ynaydi desak to'g'ri bo'ladi. Ma'lumki shunday o'z echimini yaxshi toptan plakatlar e'tirof etiladi va badiiy plakatlar sirasiga mansub bo'ladi. Plakat chizishda rassom kompozitsiyani yaxshi yuzaga chiqarishi uchun yaxshi nazariy, shuningdek amaliy bilim-ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi. Plakat ishslashni maqsad qilgan odam, u rassommi yoki talabami bundan qat'iy nazar sifatli – uquvli realistik tasvirni yaxshi chiza olishi kerak. Bu holda tajriba xam rol o'ynaydi. Baribir rassom har qancha usta bo'lmasin agar fikrlay olmaydigan bo'lsa plakat yarata olmaydi. CHunki plakatda mavzuni topish va badiiy tarzda ifoda eta olish juda muhimdir. SHu sababdan plakat yaratuvchi rassomlar unchalik ko'pchilikni tashkil etmaydi. Mamlakatimizdagи plakatchi rassomlar 30-40 kishini tashkil etadi. Ularning eng taniqli vakillari qatoriga F.Kagarov, D.Maxotin, A.Balkanov, R.Aliev, N.Ten, M.Gromiko, N.Hakimov, E.Abdullaev, V.Dumkin, N.Husanov, R.Xalilov va boshqa bir necha o'nlab rassomlarni kiritishimiz mumkin. Ayrim rangtasvirchi rassomlar ham ba'zan plakat asarlarini yaratib turishlari ma'lum.

Plakat ishslashda yozuv harflarini chiroyli qilib bajarish katta ahamiyatga ega. CHunki o'ylab topilgan qisqacha ibora ham chiroyli, ko'zga tashlanuvchi harflar bilan bitilsa albatta, asar mazmunining badiiy qimmatini oshirish uchun xizmat qiladi. Ammo harflarni sifatli bajarish ham oson emas, buning uchun rassom ma'lum tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak.

Plakat kompozitsiyasini ishslashda bo'yoqlardan unumli foydalanish katta ahamiyat kasb etuvchi omildir. Rang yordamida plakatni ko'zga tashlanuvchanligi hamda yaxlitligi ta'minlanadi. Mazmun, mohiyati yoritiladi. SHunga yarasha ranglar bachkanalikdan holi, serma'no bo'lishi lozim. U asosida plakatdagi eng zarur tasvirlar bo'rttirilib aks ettiriladi. SHunga yarasha tomoshabin e'tiborini tortadi, o'ziga jalb qiladi.

Hozirgi mustaqillik sharoitidagi, erkin, demokratik mamlakatimizda plakat san'atining yanada rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Plakat davlat siyosatini, ijtimoiy hayotdagi voqealarni badiiy tarzda ifoda etuvchi zo'r vositadir. SHuning uchun bo'lajak rassomlar orasida plakatchi ijodkorlarni tayyorlash masalasiga katta e'tibor berilmoqda. Bo'lajak pedagog – rassomlar tayyorlashda ham plakat san'ati muhim o'rin tutadi. CHunki tasviriy san'at o'qituvchilari maktab, litsey, kollej, oliy o'quv yurtidagi bezak ishlarida undan samarali foydalanishlari, bilim asoslarini targ'ibot-tashviqot etishlari maqsadga muvofiqdir.

Kitob va kitob grafikasi

Agar grafika tasviriy san'atning turi ekanligini nazarda tutadigan bo'lsak, kitob grafikasini uning eng muhim tarmog'i deb atashimiz mumkin. Kitob grafikasining ham o'ziga yarasha tasviriy ifoda vositalari va ishslash jarayonida amal qilish zarur bo'lgan qonun-qoidalari bor. Bu tamoyillar esa asrlar, yillar davomida takomillashib kelmoqda desak, aslo yanglishmaymiz. CHunki sanoat rivojlangan sari kitob chop etish ishi ham takomillashib bormoqda. Kitobni bezatish ishi esa xohlaymizmi, yo'qmi shu rivojlanishga moslasha boradi. Uning texnik imkoniyatlari, sifat darajasi oshadi.

Kitob tuzilishining o'ziga yarasha shartlari bor. Ular ustmuqova, ichki muqova, kitob varaqlarini muhofaza qiluvchi varaqlar, kitobning unvoni, xatboshi varag'i, uning bezagi, ichki suratli betlari, xotima, rasmlli bezak va boshqa shunga o'xhash unsurlardan iboratdir. Qadimgi paytlarda kitob qo'lda hech qanday texnika vositalarisiz tayyorlangan paytlarda uning muqovalari ko'pincha charmdan tayyorlangan. Uning ustidan esa yana bir maxsus g'ilofi, ust jildi bo'lgan. Matn ham qo'lda husnixat bilan yozilgan. Ichki qismlardagi varaqlarning har biri hoshiyalar bilan maxsus surat – rangdor miniyaturlar bilan bezatilgan.

Hozirgi paytda imkoniyatdan kelib chiqqan holda, mazmun-mohiyatiga qarab u ko'pincha grafik imkoniyatlar darajasida ba'zan rangli suratlar bilan, ba'zan oq-qora tasvirli chizma tasvirlar bilan bezatilmoqda. Barcha muqova hamda ichki qismidagi suratlarni rangli qilib chiqarish ko'pincha bolalarga atab chop etiladigan badiiy adabiyotlarda qo'llanadi. Hozirgi paytda bunday qiziq suratli kitoblarning aksariyati yumshoq muqovalarda chop etilmokda. Ba'zan kitobning ichidagi suratlar tushda pero bilan chizilgan tasvirlar asosida bezatiladi. Ba'zan esa

grafikaning dastgohli turlari – ofort, ksilografiya, litografiya, linogravyura usulida ishlangan mualliflik asarlari vositasida bezatiladi. So‘nggi paytlarda kitob bezak ishlarida dastgohli grafikadan foydalanish nisbatan ancha kamayganligini ham ta’kidlab o‘tishimiz o‘rinlidir. Hozirgi paytda bezak uchun akvarelda, guashda, hamda tushda bajarilgan rasm-bezaklar ko‘proq foydalanilmoqda. Ko‘proq ustmuqovaga rangdorlik bahsh etilmoqda, kitobning ichki qismlari esa soddaroq ko‘rinish kasb etib bormoqda.

YAna shuni ham alohida ta’kidlab o‘tmoq kerakki, albatta kitob bezak suratlari badiiy adabiyot mazmunini to‘ldiradigan matniga mos keladigan bo‘lishi shart. Bu talabga doimo e’tibor bilan yondoshish asarga qiziqishning ortishida muhimdir. CHunki surat-tasvirlar yaxshi, sifatli bajarilganligi kitobning o‘ziga xos «reklamasi» vazifasini o‘taydi.

Ma’lumki mamlakatimizda ko‘plab grafik rassomlar samarali ijod qilib kelmoqdalar. Ular mustaqil san’at asarlari yaratish bilan bir qatorda kitob bezash ishlari bilan ham shug‘ullanib turadilar. Ular qatorida yashab o‘tgan va hozirda ijod qilayotgan rassomlardan Q.Basharov, X.Rahmatullaev, M.Kagarov, T.Li, G.Li, A.Mamajonov, I.Vohidov, R.Zufarov, M.Odilov, F.Basharova, T.Sa’dullaev, N.Abdullaev, N.Hakimov, O.Vosixonov, X.Sodiqov, E.Nurmonov va boshqalarni sanab o‘tishimiz mumkin.

Kitob bezakchiligida uning muqova qismiga katta e’tibor qaratilishi ma’lum. U yaxshi chiqishi rassomning salohiyati va mahoratiga bog‘liqligi sir emas. Bu borada ayniqsa bolalar uchun chiqariladigan ertak asarlarni bezatish ishini ancha murakkab desak to‘g‘ri bo‘ladi, chunki bunday kitoblarni bezatayotgan rassom tasavvuri boy, mahoratli bo‘lishi kerak. Bolalar ijodkor rassom yaratgan obrazlarda badiiy-adabiy asar qahramonlari siyosini tasavvur qilishlari, unga ishonishlari lozim. SHunda kitob matni suratlari obrazlar ko‘rinishiga hamohang bo‘ladi. Uni bolalar qiziqish bilan tomosha qiladilar, kitob mazmunini tushunishlari ham oson kechadi.

Kitob chop etish tarixi va hozirgi kunini bilish uchun ko‘p mutolaa qilish kerak. O‘tmish rassomlari ijodini o‘rganish bu ishda samarali bo‘ladi. SHu ma’noda o‘zbek milliy, taniqli rassomlaridan biri sifatida mashhur bo‘lib, nom qozongan Iskandar Ikromov merosini o‘rganish juda o‘rinli. Musavvir yaratgan kitob muqova rasmlari namunalari bilan atroflicha tanishish yaxshi samara beradi,

albatta. Eng muhim esa kitob bezagi ustida ishlashni amaliy o'rganishni maqsad qilib qo'ygan talaba bu borada ko'p mashqlar bajarishi lozim. SHunda u amaliy faoliyati davomida mahoratini tobora oshirib boradi va yuqori natijalarga erisha oladi.

Mahobatli bezak san'ati

Ma'lumki mahobatli bezak san'ati amaliyoti aksariyat hollarda me'morchilik inshootlari bilan uzviy bog'liq bo'ladi. U binolarning inter'erlarini, tashqi «fasad» qismlarini chiroyli, ko'rimli qilishda qo'llanadi. Mahobatli bezak ishlari o'z bezak xususiyatlari, yaratilish texnologiyasi, tasvir vositalariga asosan o'zgachaligi bilan bir nechta turlarga bo'linadi. Masalan, devoriy surat - rangtasvir, mozaika, vitraj, sgrafitto, naqshli-koshinkorlik va boshqalarni aytib o'tishimiz mumkin. Ularda o'zaro o'xshashlik jihatlari bo'lgani holda farqlar ham mavjud. Bu xususiyatlar ayniqsa ularni ishlash texnologiyalarida aks etadi. Yana haykaltaroshlik, katta yodgorlik asarlarini ham mahobatli bezak san'ati namunalari sifatida bilamiz. YUqorida keltirib o'tilganlarning barchasi boshqa tasviriy san'at turlaridan o'zining atrof-muhiti, xona ko'rinishi, tabiat bilan uzviy holda yaratilishi bilan farklanib turadi. Bunday asarlarning eng ko'zga tashlanib turuvchixususiyati shundan iboratki, ular kattta, keng ko'lamdagi faoliyat natijasida yuzaga keladi va ko'p yillar mobaynida foydalanishga mo'ljallanadi.

Mamlakatimizda mahobatli san'at bilan shug'ullanib, shu sohada ulkan yutuqlarga erishgan, erishayotgan taniqli musavvirlar anchagina. ularning mahobatli devoriy rangtasvir, haykaltaroshlikka oid ishlarini yurtimizning turli hududlarida uchratishimiz mumkin. Turli bino va tarixiy inshootlarni, yodgorlik majmualarini yaratishda ayniqsa, o'zlarining qo'p samarali hissalarini qo'shgan va qo'shayotganlar qatorida CH.Ahmarov, T.Sa'dullaev, B.Jalolov, J.Umarbekov, S.Raxmonov, G'.Kamolov kabi mahoratli rangtasvir ustalarini, H.Husniddinxo'jaev, A.Boymatov, I.Jabborov, R.Mirtojiev kabi haykaltaroshlarning nomlarini aytib o'tishimiz mumkin.

Masalan mahobatli rangtasvirlarni ko'plab yaxshi, elga manzur namunalarini yaratgan CHingiz Ahmarovning hamza nomidagi san'atshunoslik instituti binosiga, A.Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyining zallariga, shuningdek, boshqa nufuzli inshootlarga ishlagan devoriy rangtasvir asarlarini ko'pchiligidiz yaxshi

bilami. Ular o‘z salobati, go‘zal tasviriy vositalari bilan kishilarga yillar mobaynida zavq-shavq bag‘ishlab kelmoqda. Estetik tarbiyada xizmat qilmoqda. SHuningdek eng faol, mahoratli rangtasvir ustasi, mahobatli san’atning bir necha o‘nlab namunalarini yaratgan musavvir Bahodir Jalolov ijodi ham ko‘pchilikka yaxshi tanish, u yaratgan yuksak san’at namunalarini Bahor konsert zali binosida, O‘zbekiston davlat tarixi muzeyida, Respublika kinochilar uyida, bir qator horijiy mamlakatlardagi binolarning inter’erlarida ko‘rishimiz mumkin. Haykaltarosh Ilhom Jabborov yaratgan Amir Temur haykal-yodgorligi eidilikda barchaga ma’lum, mashhur asardir desak yanglishmaymiz. Uning Xotira maydoniga o‘rnatilgan asari Motamsaro ona qiyofasi ham ko‘pchilikka ma’lum. Bundan tashqari haykaltaroshning mamlakatimizning turli shaharlarida taniqli alloma, tarixiy shaxslarga bag‘ishlab o‘rnatilgan haykaltaroshlik asarlari bor.

YUqorida keltirib o‘tilgan ma’lumotlarni yanada to‘liqroq tasavvur etish uchun har bir talaba ko‘proq kitob o‘qishi, ijodkorlar faoliyati bilan qiziqishi kerak.

Ma’lumki mahobatli san’atni yaratish boqichlari juda murakkab. Bunday san’atning yo‘l-yo‘rig‘ini ham nazariy, ham amaliy jihatdan bilib, o‘rganib olish uchun har bir talaba ish bosqichlaridan yaxshi xabardor bo‘lishi shart. O‘quv-mashq vazifa sifatida bajariladigan ish albatta kompozitsiya mavzusini tanlashdan, uni loyihalash, ya’ni eskizini topish uchun izlanishlardan iboratdir. Bu sohada ham barcha ish jarayonlari umumiyligi kompozitsiya ishlash qonun-qoidalari asosida olib boriladi. Kompozitsiya tasvirining voqeasi bunda muhim bo‘lib, u bo‘lajak ish mohiyatini, ta’sirchan ko‘rinishini ta’minlaydi. Mavzu asosan qanday bino uchun bezak ishlashga tayyorgarlik ko‘rilayotganiga qarab tanlanishi lozim. Uning rang majmui, qanday tasviriy vositalarda aks etishi ham avvaldan aniq qilib olinadi. Eskizdayoq kompozitsiya tarxi ko‘rinishi aniq tiniq bo‘lishi, qanday materiallardan foydalananib ishlanishi ma’lum bo‘lishi kerak. YUqoridagi talablar mahobatli san’atning barcha turlariga ham birdek taalluqlidir.

Manzara kompozitsiyasi

Manzara kompozitsiyasi haqidagi ma’lumotlar rassom, ijodkor-muallimlar

tayyorlash jarayonidagi eng zarur mavzulardan biri bo‘lib, qalamtasvir rangtasvir hamda kompozitsiya bo‘yicha amaldagi dasturlarning muhim qismi hisoblanadi. Manzara odamda eng ko‘p hissiyot uyg‘otuvchi janrlardan biridir. YAxshi manzara asarlari o‘zining-nafosatli ta’sirchanligi bilan insonning ruhini, ma’naviy olamini boyitishga qodir. Ona yurt, qadrdon o‘lkamiz O‘zbekiston tabiatini xususiyatlarini o‘zida to‘laqonli aks ettiruvchi, ana shu go‘zallikka nisbatan ijodkorning munosabatini namoyon etuvchi asarlar esa Vatanga muhabbat hissini tarbiyalash vositasi hamdir.

Manzara jonrining muhim ekanligini har qanday mavzu va mazmundagi asarlarning uzviy bo‘lagi sifatida foydalanplishi bilan ham izohlash mumkin. CHunki manzara xar qanday tarixiy, maishiy xamda natyurmort va portret asarlarining bir qismi, ya’ni asosiy mavzuni oolib, to‘ldirib turuvchi fon sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. SHu bilan birga u alohida ma’lum ma’noni tashuvchi, ko‘rinishni barcha jihatlari bilan aks ettiruvchi mustaqil asar sifatida yaratilishi ham mumkin. Juhon tasviriy san’ati tarixiga murojaat etar ekanmiz yuqoridagi fikrlarga juda ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin. Masalan: P.Rubens, N.Pussen, K.Koro, I.Repin, N.YAroshenko, V.Surikov, P.Benkov, L.Abdullaev, A.Abdullaev, M.Nabiev, R.Ahmedov, Z.Inog‘omov, B.ooev, J.Umarbekov, A.Mirzaev, A.Ikromjonov, M.Nuriddinov, Z.Faxruddinov, O.Qozoqov asarlarida manzara mavzuli kompozitsiyaning yordamchi qismi sifatida aks etgan. N.Karimov, I.Levitan, F.Vasilev, I.SHishkin, U.Tansiqboev, N.Karaxan, A.Mirsoatov, G‘.Abdurahmonov, A.Mo‘minov, A.YUnusov, A.Jamolov, H.Mirzahmedov, M.Toshmurodov va boshqalar manzarani mustaqil badiiy mukammal asar sifatida yaratganlar.

Ma’lumki manzara asarlarining o‘zi mazmun va mavzu jihatidan bir necha xilga bo‘linadi. Ular – shahar ko‘rinishini ifodalovchi, sanoat, tarixiy, romantik, lirik, epik, intim, dengizni aks ettiruvchi va panoramali manzaralardir. Manzara asarlari mavzu va mazmun jihatidan rang-barang bo‘lsada, ularning barchasiga taallukdi umumiyl qonuniyatları ham mavjudki, bunday xususiyatlar kompozitsiya qurilishi asoslari, mutanosiblik, fazo va chizikdi perspektiva qoidalari, rang va tue borasida olib boriladigan jarayonda namoyon bo‘ladi. CHunki manzara asari boshqa bir manzara asaridan mazmun va mavzu, voqeabandlik yuzasidan tubdan farq qilsada, mahorat darajasi tasviriy vositalarning qo‘llanishi bo‘yicha

mushtaraklik kasb etishi mumkin. Masalan, shahar manzarasini tasvirlovchi rassom bilan tog‘lar va kengliklarni tasvirlovchi rassom aks ettirgan tasvir ob’ektlari turlicha bo‘lsada, ularning o‘z ishlarini amalga oshirishdari uchun zarur bo‘lgan tasviriy vosita, uslubiy yo‘nalish bir-biriga o‘xhash bo‘lishi mumkin. YA’ni har bir asarda manzaraning va umuman rangtasvir kompozitsiyasining asoslari: mavzu, voqeabandlik, obrazlar, ko‘rish nuqtasi, ko‘rish darajasi, fazoviy planlar, perspektiva, ritm, kalorit, nur, shu’la, kompozitsiya markazi mavjud bo‘lishi kerak. Qalamchizgi, rangtasvir hamda kompozitsiya asoslaridan etarli darajada xabardor bo‘lmagan, o‘zining mahoratini natyurmortlar va musavvada lavhalar chizib oshirib bormagan ijodkor yaxshi manzara namunasini yarata olmaydi. SHuning uchun u manzara chizishda kerak bo‘ladigan nazariy hamda amaliy vazifalarni bilishi va bajarishi lozim. Manzara asari yaratish ishtiyoqida bo‘lganlar uchun ikkinchi darajali narsaning o‘zi bo‘lishi mumkin emas. Tasvirning barcha unsurlari o‘z mohiyati bo‘yicha muhimdir.

Manzara yaratish mavzu tanlash va u haqda mulohaza, mushohada yuritishdan boshlanadi. So‘ng tanlab olingan tasvir ob’ektlaridan qarab qalamchizgilar, ranglavhalar, eskizlar ishlanadi.

Tabiat manzarasini kunning turln vaqtlarida va har xil ob-havo sharoitida kuzatib, chizish uchun eng maqbul holati aniqlanadi. So‘ng uni qanday qilib obrazli tarzda aks ettirish yo‘llari qidiriladi. YA’ni mazkur holat va tabiat ko‘rinishiga xos bo‘lgan umumiy jihatlar idrok etilib, ko‘plab kichik-kichik o‘lchamli kompozitsiya eskizlari chizib ko‘riladi. Undan keyin maqbul varianti oldnnandan tayyorlangan bir qancha ranglavha va qalamchizgilar asosida nshlab chiqiladi. Ammo bu jarayonda manzaraning qisqa muddatda ishlanadigan ranglavhasi bilan haqiqiy tugal manzara – kompozitsiya orasidagi farq unutilmasligi kerak.

Ranglavhalar asosiy asarga yordamchi ashyo yoki bo‘lmasa oddiy mashq sifatida bajariladi. Ana shunday ko‘plab bajarilgan ishlar to‘plami asosiy manzara asarining mazmuni, kompozitsiya tuzilishi, rang xususiyatlari ustida samarali ish olib borishda juda muhim rol o‘ynaydi.

Manzara ranglavhasi ustida ishlash jarayonida «manzara chizish tasviriy san’atning eng oson janri, unda buyumlar aniq o‘xhatib tasvirlanmasa ham, ko‘rinishni xohdagancha o‘zgartirib ishlasa ham bo‘ladi», degan va shu kabi ba’zi

havaskor rassomlar o‘rtasida uchrab turuvchi xato, noto‘g‘ri fikrlardan iloji boricha yiroq bo‘lish kerak. CHunki asar yaratishda oson mavzu, qiyin mavzu, oson janr, murakkab janr degan tushunchalarning bo‘lishi aslo haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Har qanday asar unga halol, vijdonan mehnatsevarlik bilan yondoshilsa, muvaffaqiyatli chiqadi.

Asosiy ishga tayyorgarlik maqsadga mos keladigan joy tanlashdan boshlanadi. Masalan, shahar mavzuidagi manzara ranglavhasini yaratish haqida to‘xtalib o‘taylik. Avval mavzuni tanlab olinadi, ya’ni eski, ko‘hna, tarixiy voqealar guvohi bo‘lgan me’moriy obidalar, inshootlar aks etgan rangtasvir yaratmoqchimisiz? YOki, yangi zamon belgilari yorqin aks etgan, fan texnika yangiliklari natijasida bunyod etilgan osmono‘par binolar ko‘rinishi ishtirokidagi, yo bO‘lmasa, ham ko‘xna, ham zamonaviy navqiron shahar ko‘rinishi birgalikda aks ettirilgani ma’qulmi? Ana shular aniq fikrlab, rejalashtirib olingach, tasvirlash ob’ekti tanlanadi, uning qanday miqyosda bo‘lishi belgilanadi. Eng muvofiq ko‘rinishga ega bo‘lgai joydan qarab turib, qalamchizgilar, ranglavhalar ishlanadi. Ish jarayonida bo‘lajak manzara asarning kompozitsiya echimi, rang uyg‘unligi, tugal namuna nushasinnng katta-kichikligi, qanday o‘lchamda bo‘lishn masalalari ham puxta o‘nlab hal qilinadi.

Tabiatni diqqat bilan kuzatsangiz, uning ob’ektlari doim har xil yoritilganini ko‘rasiz. Biriga quyoshning nurlari to‘g‘ridan tik holatda tushadi, boshqasi esa yonidagi narsalar soyasida qolgan bo‘ladi. Ularning har birida tiniq yoritilgai qismini, soyalarini, yarim soyalarni, refleks va shu'lalarni ko‘ramiz.

Tabiatdagi narsalarning hajmi ko‘zimizga bo‘rtib ko‘rinishi uchun uning bir tomoni yaxshi yoritilgan bo‘lishi kerak. YUqoridagi holatda esa predmetlarning faqat yorug‘ tushgan tomonlarigina ko‘zga tashlanadi, shuning natijasida narsa hajmi bo‘rtib ko‘rinmaydn. Manzarani tasvirlash ustida ish olib borish bo‘yicha etarli darajada malakaga ega bo‘limganlarga bunday sharoitda narsalarning hajmini va fazoviyligiin haqqoniy tarzda tasvirlash juda qiyin bo‘ladi va nihoyat tabiatdagi narsalarga quyosh nurlari rassomga nisbatan yon tomondan tushgan holatda esa, buyumlarning bir tomoniga tiniq yorug‘lik tushib, soyalar quyuq ko‘rinadi. Barcha narsalarning hajmi bo‘rtib turadi. Aynan yondan tushgan yorug‘lik rassomga, ayniqsa qulay va xohishiga mos keladi.

Borliqdagi barcha narsalar inson ko‘zidan uzoqlashib borgan sari kichiklashib

ko‘rinadi. SHunga muvofiq har bir, tasviriy san’at asarida chiziqli hamda fazoviy perspektiva o‘z aksini topishi zarur. Uning qonunlarini bilmay turib, birorta ham manzaraning ko‘rinishini xatosiz tasvirlab bo‘lmaydi. Manzara ishslashdan avval chiziqli perspektivaning asosiy qonunlarini diqqat bilan o‘rganilishi lozim. SHuningdek tabiat ko‘rinishini ishslash davomida fazoviy perspektiva hodisasiga ham jiddiy e’tibor berilishi lozim.

Rangtasvirning chiziqli perspektiva talabiga muvofiq to‘g‘ri tasvirlanishi ufq chizig‘ining qanday joylashishiga ham bog‘liq. SHuning uchun uni doim to‘g‘ri aniqlab olish kerak. Manzarada ufq chizig‘i yuqorida ham, pastda ham bo‘lishi mumkin. Ba’zilar ufq chizig‘i yuqorida bo‘lgan manzara ko‘rinishini ma’qul ko‘rsalar, boshqalar aksincha, ufq chizig‘i pastda bo‘lganini ko‘proq afzal biladilar.

Tabiatda xamda rassom ishlayotgan rangtasvir sathida ham odatda osmon ko‘p joyni egallaydi. SHuning uchun uni diqqat bilan o‘xshatib tasvirlash kerak.

Kunduzi quyoshning yorug‘ida uning rangi yuqorida to‘qroq, ufqqa yaqinlashgan sari oqarib ko‘rinadi. Ufqning shunday tepasida esa osmon tumansimon bo‘lib tuyuladi. Ko‘pchilik hollarda osmon tabiatan eng yorug‘ joy hisoblanadi. Albatta, shunday paytlar ham bo‘ladiki, unda ochiq rangli narsalar quyoshning o‘tkir nurlari ostida osmondan ham yorug‘ bo‘lib ko‘rinadi. Ular binolarning devorlari, qor, oq gullar, odamlarning rangdor kiyimlari bo‘lishi mumkin.

O‘rganayotgan havaskor rassom, talabalarning ishlagan ranglavha mashqlarida ko‘pincha daraxtlar bir-biriga juda o‘xhash bo‘lib qoladi. Bunday hol talaba ularni e’tiborsizlik bilan kuzatishi natijasida ro‘y beradi. U kuzatuvchanlikka odatlangandan so‘ng hatto bir turga mansub daraxtlar ham har xil bo‘lishini, ayniqsa boshqa-boshqa turdagи daraxtlar o‘zining tuzilishi, shoxlarining joylashishi, novdalari hamda barglarining kuyuq yoki siyrakligi, rangi, shakli, po‘stlog‘ining o‘ziga xosligi va o‘ziga monand belgilari bilan ajralib turishini yaxshi bilib oladi. SHunda u tasvir etgan ranglavhadagi daraxtlar: tolmi, terakmi, qayrag‘ochmi, archami yoki tutmi ekanligi bir qarashdayoq ma’lum bo‘lib turadi.

Portret rangtasviri va kompozitsiya masalalari

Ma'lumki odam qiyofasini ishlash tasviriy san'at sohasining eng murakkab qismidir. Bu vazifani uddalash juda ko‘p nazariy va amaliy ishlarni jo‘yali, qonun-qoidoli qilib ado etishni talab etadi. Portretga, ayniqsa ijodiy portretga odam boshini yaxshi tasvirlashni o‘rganib olingach, kirishiladi, CHunki portretda odamning nafaqat boshi, yuz qismi, balki uning bo‘yni, gavdasi, ba’zida esa butun gavdasi aks ettiriladi. Portret ishlashda kompozitsiya yaratishning barcha muhim qonun-qoidalarini ham mukammal, atroflicha bilish talab etiladi.

Portret oddiy, murakkab keng ma’no tashuvchi, voqeani aks ettiruvchi bo‘lishi bilan bir-biridan ajralib turadi. Respublikamizda ijod qilayotgan ko‘plab rassomlar orasida portret ustalari ham bor. Ular qatorida A.Abdullaev, R.Ahmedov, N.Qo‘ziboev, V.Burmakin, B.Boboev, R.CHoriev, A.Ikromjonov, M.Nuriddinov, S.Rahmetov va boshqa ko‘plarni sanab o‘tishimiz mumkin. Mamlakatimizning eng taniqli, mahoratli portretchi rassomi esa, albatta Abdulhaq Abdullaev deb e’tirof etsak o‘rinli bo‘ladi. CHunki bu musavvir o‘zbek portretchiligi san’atiga ulkan muvaffaqiyatlar keltirgan insondir. Ma'lumki M.Nabiev ham portret san’ati namunalarini juda ko‘pini yaratgan rassomdir. Musavvirning «Amir Temur» portret asari va «Bobur portreti», «Abu Rayhon Beruniy portreti» ko‘pchilikka ma'lum ajoyib asarlardir desak yanglishmaymiz.

Akademik yo‘nalishdagi portretni ishlashning o‘z qonun-qoidalari bor. Ular o‘quv-mashq ishi ekanligi, kat’iy me’zonlar doirasida, metodik izchillik asosida bajarilishini bilamiz. Ammo uning barcha talablariga muvofiq ish olib borish ancha murakkabdir. Buning uchun talaba ko‘p mashq qilishi hamda nazariy bilimlar bilan qurollanishi kerak.

Portret mashq vazifa sifatida ishlanayotgan bo‘lsada, unga alohida talabchanlik bilan yondoshish zarur. CHizilayotgan kishining qiyofasini o‘xshatish eng muhim ishdir. Bu masalani ijobiy hal etish kompozitsiya, tasvir rang xususiyatlari, o‘ziga xos xususiyatlari shaxsga aloqador belgilarni topa bilish va aks etgira olish bilan bog‘liqdir. O‘quv-mashq uchun ko‘rinishi qiziqarli, yuz tuzilishlari ifodali, rangi ham chiroyli ko‘rinishga ega bo‘lgan kishi tanlanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Odatda portretning qo‘l tasviri bilan birga ishlanadigan xili - (tors), butun gavda to‘liq aks ettiriladigan, hamda xonadagi boshqa uy jihozlari bilan bog‘liq



holda voqeabandlik kasb etuvchi kompozitsiyaviy turlari mavjud. Ular qanday sharoitda, qanday atrof-muhitda ishlanishi tasvir ma’no-mohiyatini belgilaydi. Akademik portret albatga bosqichma-bosqich, barcha qo‘yiltan talablarga amal qilingan tarzda bajariladi. Uni ishslashdan avval qo‘yilma yaxshilab tahlil qilinadi. Ranglavha, kichik qalamchizgilar qilinadi. Ular yordamida bo‘lajak asosiy portret rangtasvnining tarxlari kompozitsiya qonun-qoidalariga muvofiq topiladi. Bosqichma-boskich ishslash esa, umumiyyadan xususiyga, so‘ng esa yana umumlashtirishga asoslangan holda tartibli qilib olib boriladi.


Ishni sifatli olib borishda rangtasvir texnologiyasiga to‘liq amal qilinsa tasvir mazmundorligiga erishish engil kechadi. SHuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, portretga qo‘yiladigan eng asosiy talablardan biri uning tasvir etilayotgan shaxsga o‘xhashi kerakligi masalasidir. Bu jihatni amalga oshirishda aks ettirilayotgan kishi-qiyofachining o‘ziga xos fe’l-atvorini sezib uni ifoda etish muhimdir. Qiyofachining shu sifatlari uning bosh shakl tuzilishida, ko‘z, qosh, burun, og‘iz, yonoq, iyak, peshona, sochlardan sezilib turishi ma’lum. Ularni shakllari, ranglarini tabiiy ko‘rinishiga yaqin qilib olish ancha sinchkovlikni talab etadi.

Portretda chizilayotgan kishi kayfiyati, ruhiy holatiga alohida ahamiyat berilishi kerak. CHunki portretda bu juda katta rol o‘ynaydi. Kompozitsiya mazmunining nechog‘li echim topishi shunga bog‘liq.

Ta’sirchanligi, ko‘rimliligi shunga yarasha aks etadi. Portret ishslashni o‘rganishning eng zarur sharti talabalarning uy vazifasi sifatida ko‘proq mashqlar, bajarishi bilan belgilanadi. Iloji boricha qiyofachilarning yoshlari, ko‘rinishlari, jinslari turlicha bo‘lishi, ular xona ichida, tashqarida ochiq havo sharoitida turli tuman fonlar bilan ishlanishi zarur. Portretda chizilayotgan odamlarning kiyim-kechaklari, bosh kiyimlari, qo‘lidagi yoki yonidagi buyumlar ham ma’lum darajada ahamiyatlidir. Ular kompozitsiyani boyitib, ish mazmuniga chuqr ma’no voqeabandlik bag‘ishlashi mumkin.

Kompozitsiya markazini aniqlashning grafik chizmasi





Vazani siluetda aks etdirish variantları.




G. CHiganov.
“Рыбаки”



G. CHiganov. “Podalar vodiya qaytmoqda”



E. Simonovaning plakat asaridan namuna




Xarakatdagı qomat qalamtasvirı vazifasının plakat echimi.



P. Benkov. "Dugonalar"



P. Benkov. "YAna vatanda"



R. Axmedov. "Qo'shiq"


G

Abdu
raxm
onov
«
Xums
on
manz
arasi»






G. Abduraxmonov “CHuponlar”



N. Abdusalomxo'jaev. "Xat o'qiyotgan qiz"


B.Tojiev. "CHorbog"







Ikromjonov «Natyurmort»



Ikromjonov «CHingiz Axmarov portreti »

Mavzularga oid savollar?

Qalamtasvir bo‘yicha:

1. Qalamtasvir nima?
2. Tasvirlashning asosiy qonun-qoidalari nimalardan iborat?
3. Rasm chizishda qanday jihozlardan foydalilanadi?
4. Rasm chizishda qanday tasvirlash vositalari, ashyolari qo‘llaniladi?
5. Intererdagи odamni chizishda ko‘proq nimalarga ahamiyat berish zarur?
6. CHizishda odam qomati o‘lchamlari qanday topiladi?
7. Hayvon va qushlarning tasvirini ishlashda nimalarga amal qilinadi?
8. Odam va boshqa jonivorlar skeleti tuzilishidagi o‘xshashliklari va ularni chizishda qanday mutanosibliklar mavjud?
9. Nima uchun qush va hayvonlarning tulumlari chiziladi?
- 10.Odam bosh chanoq suyagi qanday qismlardan iborat, ularning rasm chizish mashqlarida tasvirlashdagi ahamiyati nimada?
- 11.Rasm (portret) chizishda kalla suyagining qanday qism, bo‘laklari ko‘proq bo‘rttirib ko‘rsatilishi kerak?
- 12.Inson bosh qismining mushaklari nechta, chizmatasvirda ularni to‘g‘ri aks ettirishda nimalarga amal qilinadi?
- 13.CHiziqli va fazoviy perspektivaning tasvir yaratishda tutgan o‘rnini nimalardan iborat?
- 14.Intererni tasvirlashda perspektivaning qanday muhim qoidalariiga amal qilinadi?
- 15.O‘quv qalamtasviri va ijodiy qalmatasvir nimalar bilan farq qiladi?
- 16.Odam qiyofasini chizishda, uning tana skeletini bilishning ahamiyati nimada?
- 17.“Ekorshe” nima uchun chiziladi?
- 18.Odamning gipsdan tayyorlangan haykal namunalari nima uchun chiziladi?
- 19.Pedagogik rasm chizishning ahamiyati, maqsad va vazifalari nimalardan

iborat?

20. Rasmni sinf “doska”sida chizish, mashq qilishning afzalligi nimada?
21. Sinf taxtasining rangi sizningcha qanaqa tusda bo‘lgani ma’qul?
22. Inson qomatini tasvirlashda odam skeletining anatomik tahlili nima uchun kerak, u qanday amalga oshiriladi?
23. Odam skeletining tarkibida qanaqa nomdagi suyaklar mavjud, ulardan 15 tasini sanab aytib bera olasizmi?
24. Xorijiy rassom – pedagoglarning va o‘zbek mualliflari yozgan plastik anatomiyaga oid adabiyotlardan qaysilarini bilasiz?
25. Plastik anatomiya deganda nimani tushunasiz?
26. Odam tanasini chizishda plastik anatomiyaning ahamiyati tasvirning qanday jihatlarini namoyon etishda ko‘rinadi?
27. Inson tanasini tasvirlashda uning mushaklari tuzilishini bilash qanday sifatli natijalar, afzallikkarni beradi.

Rangtasvir bo‘yicha:

1. Haqqoniy rangtasvirning vazifalari nimalardan iborat?
2. Rang va tasvir uyg‘unligi deganda nimalarni tushunasiz?
3. Tabiatdagi va rangtasvirlardagi ranglar qanday jihatlari bilan farqlanib turadi?
4. Rangtasvirda qalamtasvirning o‘rni, ahamiyati nimalarda namoyon bo‘ladi?
5. “Spektr” nima?
6. Rangning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Akvarel bo‘yog‘i haqida nimalarni bilasiz?
8. Akvarelda tasvir ishlashda qanday usullar qo‘llaniladi?
9. Axromatik va xromatik ranglar deganda nimalarni tushunasiz?
10. Asosiy va qo‘srimcha ranglar to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
11. Bo‘yoqlarning turlari, ranglarning xususiyatlari to‘g‘risida qanday ma’lumotlarga egasiz, ularning texnologiyasi haqidachi?
12. Guash bo‘yog‘ining asosiy o‘ziga xosligi nimalarda namoyon bo‘ladi?
13. Guashda tasvirlar ishlash yo‘llari, texnika va texnologiyasi haqida nimalarni bilasiz?

- 14.Guash bo‘yog‘i asosan qaysi san’at turlarida va janrlarida ishlataladi?
- 15.Rang gammasi degan ibora nimalarni bildiradi?
- 16.Ranglarning yaxlitligi qanday vositalar yordamida ta’milnadi?
- 17.“Kolorit” so‘zi nimani ifoda etadi?
- 18.SHu’la va “refleks” ning farqi nimada?
- 19.Moybo‘yoq boshqa bo‘yoq turlaridan nimasi bilan farq qiladi?
- 20.Moybo‘yoq – tasvir texnologiyasi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
- 21.“Lessirovka” texnikasi nima, u qanday qo‘llanadi?
- 22.Odam boshini tasvirlashda asosan qanday qonun-qoidalarga amal qilinadi?
- 23.Odam boshini tasvirlashda “grizayl” texnikasini qo‘llashning afzalligi nimalarda namoyon bo‘ladi?
- 24.Odam tasvirini ranglar bilan ishlash texnologiyasi haqida nimalarni bilasiz?
- 25.Odam boshini ishlash yo‘llari, tasvirlashning bosqichlarida nimalarga amal qilish kerak?
- 26.Akademik tasvir - mashq va ijodiy ishning qanday farqlari bor?
- 27.O‘quv – mashq vazifa qanday tartibda olib boriladi?
- 28.Bosh tasvirini ishlashda uning kompozitsiyasi qanday o‘rin tutadi?
- 29.Ijodiy portret yaratish jarayoni to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
- 30.O‘zbek portreti san’ati ustalaridan kimlarni bilasiz?
- 31.Portretning qanday turlari bor, ularga misollar keltira olasizmi?
- 32.Odam qiyofasini to‘liq tasvirini ishlashda qanday murakkabliklar uchraydi?
- 33.Kiyimli odam va yalong‘och odam tasvirini bajarishda qanday o‘ziga xos farqlar mavjud?
- 34.Portretda qo‘l tasviri qanaqa o‘rinni egallaydi?
- 35.Portretda mahorat, ko‘nikma va malaka, tajribaning o‘rni nimalarda namoyon bo‘ladi?
- 36.“Materialilik” – narsa sirti xususiyatlarini ifoda qilish qanday omillar bilan yuzaga chiqariladi?
- 37.Odamning yalang‘och tanasini tasvirlash nima uchun kiyimdagisini aks ettirishdan qiyinroq bo‘ladi? Uning sabablari nimada?
- 38.YAlang‘och gavdadan ranglavha ishlaganda nimalarga e’tibor berilishi kerak?
- 39.Rangtasvirda shakl bo‘rtiqligi, ya’ni uning hajmdorligi va rang-tus

uyg‘unligi qanday amalga oshiriladi?

40.Ranglavha nega tez ishlanadi?

41.Mavzuli – voqeaband qo‘yilmalar qanday, nimalarga amal qilgan holda tashkil qilinadi va ishlanadi?

42.Intererda “plener”da tashkil etilayotgan mavzuli – voqeaband qo‘yilmalarning qanaqa farqli tomonlari bor?

43.Qo‘yilma xonada tashkil etilganda undagi perspektiva qonun-qoidalarining tadbiqi qanday, tasvir ko‘rinishlari qanaqa o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi?

“Kompozitsiya” bo‘yicha:

1. Kompozitsiya nima?
2. Kompozitsiya tuzish qonun-qoidalari to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
3. Kompozitsyaning asosiy unsurlari, tasvir vositalari nimalardan iborat?
4. Kompozitsiya ustalari bo‘lgan qaysi rassomlarning nomlarini va asarlarini bilasiz?
5. YAxlitlik, kontrastlilik qonunlari haqida nimalarni bilasiz?
6. Badiiy ijod kuchlari nimalardan iborat?
7. Badiiy uslub nima?
8. Kompozitsyaning eng muhim unsurlari nimalardan iborat?
9. Kompozitsiyada makon, atrof-muhit, vaqt qanday aks ettiriladi?
10. Interer kompozitsiya faktori sifatida qanday ahamiyatga ega?
11. Kompozitsiyada perspektiva qonun-qoidalarining tadbiq etilishi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
12. Manzara janrining o‘ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo‘ladi?
13. O‘zbek rassomlarining manzara janriga oid qanday asarlarini bilasiz?
14. Manzara kompozitsiyasi tuzilishida qanday unsurlar eng muhim ahamiyat kasb etadi?
15. Mavzuli – voqeaband asardagi manzara uning mazmuni ifodasida qanday o‘rinni egallaydi?
16. Manzara kompozitsiyasida rang, tus munosabatlari qanday ahamiyatga ega?
17. Plakat san’ati, uning o‘ziga xos tomonlari to‘g‘risida nimalarni bilasiz?

18. Plakat kompozitsiyasining asosiy unsurlari nimalardan iborat?
19. Plakatdagi mazmun, g‘oya va ularning tasvirdagi ifodasi qanday shakllarda yuzaga chiqariladi?
20. O‘zbek plakatchi rassomlaridan kimlarni bilasiz?
21. Grafika san’ati tarixiga oid qanday ma’lumotlarni bilasiz?
22. Kitob grafikasining o‘ziga xosligi nimalarda namoyon bo‘ladi?
23. Kitob grafikasida qanaqa texnika va texnologiyalar qo‘llaniladi?
24. O‘zbek kitob grafikasi san’ati ustalaridan kimlarni bilasiz?
25. O‘zbek grafik rassomlari ijodida miniatyura san’ati unsurlari qanday o‘rinni egallaydi?
26. Mahobatli rangtasvir san’ati tarixiga oid qanday ma’lumotlarni bilasiz?
27. Mahobatli bezak san’ati nimasi bilan boshqa tasviriy san’at turlaridan farq qiladi?
28. Devoriy rangtasvir texnikasi va texnologiyasiga oid tasvirlash yo‘llari to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
29. Hozirgi zamon o‘zbek rassomlari yaratgan qanday mahobatli rangtasvir san’ati namunalarini bilasiz?

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. G.V.Veda. jivopis. Moskva «Prosvetenie». 1986.
2. B.Boymetov, B.Tojiev «Qalamtasvir fanidan ma’ruzalar matni». Nizomiy nomidagi TDPU. Toshkent – 2000.
3. E.S.Gromov. priroda xudojestvennogo tvorchestva. Moskva «Prosvetenie». 1986.
4. Izobrazitelnoe iskusstvo. (Pod redaksiey G.B.Smirnova) Moskva «Prosvetenie». 1977.

5. Izobrazitelnoe iskusstvo. (Pod redaksiey A.A.Unkovskogo) Moskva «Prosvetenie». 1980.
6. Izobrazitelnoe iskusstvo. (Pod redaksiey N.S.Bogolyubova) Moskva «Prosvetenie». 1980.
7. Izobrazitelnoe iskusstvo. (Pod redaksiey G.G.Gorelova) Moskva «Prosvetenie». 1980.
8. N.P.Kosterin. Uchebnoe risovanie. Moskva «Prosvetenie». 1984.
9. A.S.Puchkov, A.V.Triselev. Metodika raboty nad natyurmortom. Moskva «Prosvetenie». 1982.
10. Risunok. Jivopis. Kompozitsiya: (Xrestomatiya). Moskva «Prosvetenie». 1989.
11. N.Tolipov. Rangtasvir asoslari. Toshkent – 1999.
12. B.Tojiev. Qalamtasvir asoslarini o‘rganish (dastlabki saboqlar). Toshkent – 1994.
13. B.Tojiev. Qalamda manzara chizish. Toshkent – 2000.
14. B.Tojiev. «Rangtasvir» fanidan ma’ruzalar matni. Nizomiy nomidagi TDPU: Toshkent – 2000.
15. B.Tojiev. «Kompozitsiya» fanidan ma’ruzalar matni. Nizomiy nomidagi TDPU: Toshkent – 2000.
16. A.A.Unkovskiy. svet v jivopisi. Moskva. «Prosvetenie». 1983.

Mundarija:

- Muqaddima
- I.bob. Qalamtasvir
- Qalamtasvir va uning maqsad vazifalari
- Tasvirlashning asosiy qonun-qoidalari
- O‘quv qalamtasvir hamda qalamchizgilar bajarishda kompozitsiya asoslari va ijodiy malakalarni rivojlantirish
- Badiiy ta’limda qalamchizgilarning ahamiyati. Hayvon va qushlarning anatomik tuzilish xususiyatlari hamda ularning qalamchizgilar

- vositasida tasvirlash usullari. Odam bosh suyagining tuzilishi haqidagi dastlabki ma'lumotlar
- Intererda inson qomatining turli holatlardagi qalamchizgilari
 - Turli tasvirlash vositalari
 - Qalamtasvir mavzusiga oid surat-ilovalar
 - II.bob. Rangtasvir
 - «Rangtasvir» tushunchasi
 - Axromatik va xromatik, iliq va sovuq, asosiy va qo'shimcha ranglar.....
 - Rangning xususiyatlari. Akvarel bo'yqda ishlash texnikasi. Spektr Ranglar doirasi haqida
 - Rangtasvirda turli sirtlarni ifodalay bilish
 - Odam boshining rangtasvirini ishlashda hal etiladigan o'quv vazifalari. SHaxsn ni o'xshatib aks ettirish
 - Odam boshini rangtasviri ustida ish olib borish bosqichlari
 - Har xil masofada turgan odam gavdasini rangtasvirda ifoda etish
 - Odam gavdasini rangtasvirda ishlash yo'llari. Odam yuzi, qo'li, kiyimini ifoda etish
 - YAlang'och gavdadan ranglavha ishlashda qo'yiladigan talablar
 - Guash bo'yog'ida ishlashning yo'llari
 - Moybo'yoq rangtasvir texnikasi
 - Rangtasvir mavzusiga oid surat – ilovalar
 - III.bob. Kompozitsiya. Kompozitsiya o'quv predmeti sifatida
 - Kompozitsiyaning asosiy qonuniyatları
 - Interer, fazo, atrof – muhit va vaqt kompozitsiyaning faktorlari sifatida
 - Plakat san'ati haqida
 - Kitob va kitob grafikasi
 - Mahobatli bezak san'ati
 - Manzara kompozitsiyasi
 - Portret rangtasviri va kompozitsiya masalalari
 - Kompozitsiya mavzusiga oid surat – ilovalar
 - IV.bob. Mavzularga oid savollar
 - Qalamtasvir bo'yicha

- Rangtasvir bo‘yicha
- Kompozitsiya bo‘yicha
- Adabiyotlar ro‘yxati